جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!


Jadid

2024-yil 26-iyul
№ 31(31)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

ADABIY DO‘STLIK

UMUMMILLAT FUQAROSI



Nodar Dumbadze ijodining o‘ziga xosligi shundaki, uning asarlarida qadimiy an’analarga sodiqlik ulug‘lanadi. Qolaversa, badiiy asarni idrok etish degani – bu uni ayni davr bilan bog‘lab turgan nuqtalarini ko‘ra olish, topish demakdir.

(5-sahifada o‘qing).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

SIYOSIY QATAG‘ON QURBONI BO‘LGAN YURTDOSHLARIMIZ HAYOTI VA FAOLIYATINI O‘RGANISH, TARG‘IB ETISH HAMDA ULARNING XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH BORASIDAGI ISHLARNI KENGAYTIRISH TO‘G‘RISIDA

Ma’lumki, 1937-1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan 100 mingdan ziyod xalqimiz vakillari qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgan. Bu yurtdoshlarimizning 13 ming nafari otib tashlangan, minglab kishilar nohaq quloq qilingan, surgunlarga jo‘natilgan. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a’zolari bo‘lgan.

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jonini fido etgan, siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini atroflicha o‘rganish va tadqiq etish, ularning nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha keyingi yillarda yurtimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2021-2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan **1 ming 200 dan ziyod** siyosiy qatag‘on qurbonlarining nomlari oqlanganini alohida qayd etish lozim.

Hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma’lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash maqsadida:

1. Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha **respublika komissiyasi** (keyingi o‘rinlarda – Respublika komissiyasi) 1-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.

2. Quyidagilar Respublika komissiyasining **asosiy vazifalari** etib belgilansin:

qatag‘on qurboni bo‘lgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o‘rganish, ularni nomma-nom aniqlash, tarixiy xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni, arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni **to‘plash va tadqiq etish, ommalashtirish uchun ishchi guruhlar faoliyatini tashkil etish;**

qatag‘on qurbonlarining avlodlari va yaqinlari, o‘sha davr voqealariga guvoh bo‘lgan insonlarning xotiralarini **yozib olish,** oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy manbalarni, noyob suratlarni **to‘plash** bo‘yicha ishlarni **muvofiqlashtirish;**

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning hududlardagi bo‘limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma’lumotlar, ashyoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib **borilishini ta’minlash;**

qatag‘on qilingan yurtdoshlarimiz haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ko‘p jildlik **“Qatag‘on qurbonlari”** kitobini chop etish hamda ularning nomlarini Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida barpo etiladigan **ramziy kitob sahifalariga kiritish** ishlarini davom ettirish;

chet eldagi turli fondlar, arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik o‘rnatgan holda, mavzuga oid **ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish;**

yosh avlodni Vatanimiz ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan buyuk **ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash,** ularning jasorati va ibratli faoliyatini targ‘ib etishga qaratilgan **ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yo‘lga qo‘yish.**

Respublika komissiyasining i**shchi organi** etib Mudofaa vazirligining umumiy rahbarligida Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish instituti, “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi, “Shon-sharaf” davlat muzeyi mas’ul xodimlari va yetakchi mutaxassislaridan iborat guruh belgilansin.

3. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining **har yili oktyabr oyining birinchi haftasini** mamlakatimizda **Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi** sifatida nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

(Davomi 2-sahifada).

NUQTAYI NAZAR

INSON VA VATAN HURRIYATI



Oqil SALIMOV,
akademik

Yurtning har bir fuqarosini e’zozlagan, inson xotirasiga ehtirom ko‘rsatgan mamlakatda adolat hukmron bo‘ladi. Zero, har qanday odam tabiatan odil hukmga, yaxshi so‘zga hamisha zarurat sezadi. Erkin yashash qadim-qadimdan to hanuz zamin ahlining orzusidir. Bashariyat tarixida, xususan, biz guvohi bo‘lgan XX asrda shunday qabohatlar, xunrezlik va adolatsizliklar bo‘lgan ediki, unga nom topish mushkul. Xususan, 30-yillar qatlidan yuraklarda qolgan zaxm yaralari haliga qadar bitgani yo‘q.

O‘sha davrda hech bir gunohsiz qatlgohlarda o‘ldirilgan odamlar son-sanog‘ini bilmaymiz, to‘g‘risi. Ular orasida har bir millatning yuz minglab yuksak madaniyatli ziyolilari, olim va ulamolari bor edi. Ular bizning qavm-qarindoshimiz, ular bizning bobolarimiz, ular bizning shonli ildizimiz edi. Bu qatag‘on davri yurakni o‘rtaydi, xayolni iztirobli ko‘chalar tomonga boshlaydi. Respublika Prezidenti tomonidan imzolangan “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi tarixiy qarorni o‘qib, to‘g‘risi, yana o‘yga toldim. Bunday vaziyatda fikrlamaslikning, o‘ylamaslikning va qiyoslamaslikning hech iloji yo‘q.

Har gal qatag‘on qurbonlari xususida so‘z borganda beixtiyor bolalik damlarim ko‘z oldimga keladi. O‘zim guvohi bo‘lgan hodisalar kinotasma kabi bir-bir ko‘z oldimdan o‘taveradi. To‘g‘ri, men 30-yillardagi xunrezliklarga shaxsan guvoh bo‘lganim yo‘q, ularni kattalardan eshitdim. Biroq 50-yillarda millat oydinlari boshiga yog‘ilgan balo-ofatni, xususan, Hamid Sulaymon, Maqsud Shayxzoda, Shuhrat domla, Said Ahmad, Mirzakolon Ismoiliy, Shukrullo kabi mashhur ziyolilarning tuhmatlar girdobi ichra ilojsiz qolgan kunlarini hali-hali eslayman. Qo‘rquv saltanatni egallagan sobiq ittifoqda erksizlik hukm surdi. Millat manfaati, milliy qadriyatlar, xususan, el-yurt kelajagi, baxt-u saodati uchun jon fido qilgan jadid ziyolilari xususida so‘zlash mutlaqo mumkin emas edi. Ular tarix kitoblarida, darsliklarda nuqul salbiy sifatlar bilan haqoratlarga ko‘mib tashlanar edi. Holbuki, tarixiy haqiqat mutlaqo ularga taqalgan “xalq dushmani”, “badbin millatchi”, “burjuaziya malayi” kabi tushunchalarga aloqasiz ekanini ko‘rsatadi. Bu haqiqatni anglash uchun bizga Istiqlol lozim edi. Ayniqsa, keyingi yetti-sakkiz yil davomida Respublika Prezidentining shaxsiy tashabbusi bilan qatag‘onga uchragan minglab yurtdoshlarning nomi oqlandi, xotirasiga hurmat bajo keltirildi. Kecha imzolangan qaror ham shu xayrli ishlarning davomi, albatta. Qatag‘on qurbonlarining tarixiy xizmatlari e’tiborga olinib, ular uchun muzeylar tashkil etilmoqda, filmlar suratga olinmoqda va bu ishlar jadal davom etayotir. Maqsad – inson va Vatan hurriyati bebaho ne’mat ekani to‘g‘risida bugungi yosh avlodga saboq berishdir. Men hozir iqtidorli yoshlar bilan birgaman. Ularning qalbini anglashga, quvonchlariga sherik bo‘lishga harakat qilaman. Ular bilan bo‘ladigan muloqot va suhbatlarimda nohaq qatag‘onga uchragan alloma bobolarimiz xususida so‘zlayman. Mening xotiralarim ular uchun gohida ertakdek eshitilishini ham sezib turaman. Biroq yaqin tarixdagi nohaqliklarni yoshlarga chuqur anglatishimiz va ular qalbida shu mo‘tabar tuproq uchun jon fido qilgan fidoyilarga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish va bu tuyg‘uni kuchaytirishimiz kerak. Shu o‘rinda men yoshlarga murojaat qilib shunday demoqchiman:

Aziz yoshlar, tarixni xolis va chuqur o‘rganib, undan ibratli xulosalar chiqarishni kasb eting. Qadrdon bolalarim, bizning allomalar boshiga kelgan musibatli kunlar aslo takrorlanmasligi uchun astoydil o‘qing, yuksak marralarga erishing, o‘z vaqtida dunyo ahliga murabbiy bo‘lgan ajdodlarga munosib davomchi bo‘ling. Ishonchim komilki, bu tabarruk yo‘lda sizga butun O‘zbekiston ahli yordamchi bo‘ladi, albatta.

MUNOSABAT

SHONLI TARIX UYG‘ONMOQDA!



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi haqiqatan ham ma’naviy hayotimizda muhim voqea bo‘ldi. Chunki o‘z davrida Vatanimiz milliy istiqloli va xalqimiz ozodligi uchun kurashib, bunday sharafli yo‘lda o‘z jonini ham ayamagan fidoyi ota-bobolarimizning xotirasini e’zozlash, ularning hayoti va faoliyatini har tomonlama o‘rganish barchamizning zimmamizdagi burchimizdir.

Shu bois ham, mazkur tarixiy hujjat olimlar, ijodkor va ziyolilarda katta qiziqish uyg‘otdi, qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida ular o‘zlarining munosabatlarini bildirishmoqda.

TAHRIRIYAT

(2-sahifada o‘qing).



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Respublika komissiyasi Qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligini munosib darajada o‘tkazish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va ularning amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Qatag‘on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalarining ibratli hayoti va faoliyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida **yanada keng targ‘ib etish maqsadida:**

“Nuroniy” jamg‘armasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi **xalqimizning mustaqillikka erishish yo‘lidagi ko‘p asrlik mardona kurashi,** bu yo‘lda **siyosiy qatag‘onga uchragan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyati hamda ularning xotirasiga bag‘ishlangan** ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari, ta’lim muassasalari va mahallalarda uch avlod uchrashuvlarini tashkil etib borsin;

Madaniyat vazirligi davlat buyurtmasi asosida **spektakllar, badiiy va hujjatli filmlar** yaratsin;

Yoshlar ishlari agentligi **audiovizual mahsulotlar** tayyorlab, ularni **internet tarmog‘ida ommalashtirsin,** shuningdek, foydalanuvchilar o‘rtasida turli **tanlov, musobaqa va aksiyalar** o‘tkazsin;

Fanlar akademiyasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda Fanlar akademiyasi Tarix institutining “Jadidlar.uz” elektron platformasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish va platformani yangi elektron adabiyotlar, tarixiy manbalar, jadid matbuoti namunalari va audiovizual mahsulotlar bilan boyitish choralarini ko‘rsin;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan **“Mustaqillik darslari” doirasida qatag‘on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalariga bag‘ishlangan o‘quv mashg‘ulotlari**ni tashkil etsin;

Turizm qo‘mitasi qatag‘on qurbonlarining nomlari bilan bog‘liq muzey va obyektlarni **sayyohlik yo‘nalishlari**ga kiritish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

SIYOSIY QATAG‘ON QURBONI BO‘LGAN YURTDOSHLARIMIZ HAYOTI VA FAOLIYATINI O‘RGANISH, TARG‘IB ETISH HAMDA ULARNING XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH BORASIDAGI ISHLARNI KENGAYTIRISH TO‘G‘RISIDA

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, “Nuroniy” jamg‘armasi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi bilan birgalikda **Respublika komissiyasining qarori asosida:**

qatag‘on qurbonlari va jadidlik harakati vakillari bo‘lgan shaxslar tug‘ilib o‘sgan, yashagan xonadonlarni aniqlasin va **ularda esdalik lavhalari**ni o‘rnatsin;

mahallalarda va umumta’lim maktablarida tegishli tarzda **“Qatag‘on qurbonlari xotirasi burchaklari”**ni, stendlar va boshqa ko‘rgazmali vositalarni tashkil etsin;

Mazkur bandda belgilangan vazifalar mahalliy byudjetlar mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

6. Qatag‘on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalarining hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy merosi, shuningdek, o‘sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsadida:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mavzuga oid **ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi**ning tanlovlar asosida shakllantirilishi hamda **ilmiy loyihalarning amalga oshirilishi**ni ta’minlasin;

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, “O‘zarxiv” agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi qatag‘on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarining ilmiy-ijodiy faoliyatiga tegishli nodir kitoblar, qo‘lyozma asarlar, tarixiy hujjatlar va boshqa materiallarni ta’mirlasin hamda raqamlashtirsin;

“O‘zarxiv” agentligi Davlat xavfsizlik xizmati bilan birgalikda davlat arxivlarida saqlanayotgan qatag‘on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalariga oid muayyan **arxiv hujjatlarini belgilangan tartibda maxfiylikdan chiqarish** choralarini ko‘rsin;

vazirlik va idoralar qatag‘on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarining nomlarini aniqlash borasida izlanishlar olib borish uchun Respublika komissiyasi tavsiyasiga asosan, tegishli **idoraviy arxivlardan foydalanish** imkoniyatini yaratsin;

Tashqi ishlar vazirligi qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga doir **chet ellardagi mavjud manbalarni izlab topish** va o‘rganishda xorijdagi ilmiy-tadqiqot markazlari, nufuzli universitet va fondlar hamda soha mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda amaliy yordam ko‘rsatsin.

7. Madaniy meros agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda shaxsiy va oilaviy arxivlarda saqlab kelinayotgan qatag‘on qurbonlari faoliyatiga bevosita daxldor bo‘lgan **qo‘lyozma, kitob, surat va buyum shaklidagi tarixiy-madaniy ashyolarning** davlat muzeylari fondlariga qabul qilib olinishini tashkil etsin.

8. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va uning hududlardagi bo‘limlari fondlarini muntazam boyitib borish, ularda yangi ekspozitsiya va ko‘rgazmalar tashkil etish hamda bu borada zamonaviy **raqamli texnologiyalar va multimedia vositalari**dan keng foydalanishni yo‘lga qo‘ysin.

9. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Bojxona qo‘mitasi ushbu qaror bilan belgilangan vazifalarni bajarishda daxldor vazirlik, idora va tashkilotlarga har tomonlama yordam ko‘rsatilishini ta’minlasin.

10. Adliya vazirligi Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan birgalikda **ikki oy muddatda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘onga uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish** tartibini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritsin.

11. Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

2025-yildan boshlab qatag‘on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalariga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish, “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitoblarini, kitob va albomlar, yo‘l ko‘rsatkichlarini tayyorlash, shuningdek, ko‘rgazmalar tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda inobatga olsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **ikki oy muddatda** Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining tuzilmasini takomillashtirish, jumladan, uning tarkibida multimedia, nashriyot va matbaa bo‘linmalarini tashkil etish hamda muzey va uning hududiy bo‘limlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

12. Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish bo‘yicha **chora-tadbirlar dasturi** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyati, ularning ilmiy-ijodiy merosining mohiyati va tarbiyaviy ahamiyatini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlarni keng yoritish, mavzuga oid teleko‘rsatuv va radioeshittirishlarni muntazam efirga uzatish hamda matbuot nashrlari va internet sahifalarida maqolalar e’lon qilib borish tavsiya etilsin.

14. Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilikka ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Ushbu qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 19-iyul

SHONLI TARIX UYG‘ONMOQDA!

TARBIYA – HAMMANING VAZIFASI

Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish masalasiga bag‘ishlangan mazkur qaror bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturida qatag‘on qurbonlari va jadidlarni viloyat, tuman va shaharlar kesimida nomma-nom aniqlash, ularning hayoti va faoliyati, tarixiy xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni, arxiv va muzeylarda saqlanayotgan hujjatlarni to‘plash va o‘rganish, “Tarixiy xotira ma’naviy va ruhiy tarbiya – Yangi O‘zbekiston poydevori” degan shior ostida hududlarda, mahalla va tashkilotlarda ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot-tushuntirish tadbirlari hamda davra suhbatlari o‘tkazish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.



Hamdam QARSHIYEV,
Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

Shuningdek, dasturdan qatag‘on qurbonlari va jadidlar tug‘ilib voyaga yetgan va istiqomat qilgan mahallalarda va umumta’lim maktablarida xotira burchaklarini tashkil etish, ularning oila a’zolari, farzand va nabiralari hamda boshqa yaqinlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, davlat mukofotlariga tavsiya etish kabi masalalar o‘rin olgan.

Muhtaram Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “...Biz jadidlik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”.

Darhaqiqat, atoqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning yoshlarimiz tarbiyasi haqidagi: “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrlarimizni nurlantirmoq, axloqimizni go‘zallantirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qayerda qiladi, degan savol keladi. Bu savolga: Birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”, degan so‘zlari bugungi globallashuv jarayonida nihoyatda ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda ekstremizm, ommaviy madaniyat, kosmopolitizm, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kabi zararli illatlar yoshlarimiz o‘rtasida keng avj olmoqda. Bu xatarlardan yoshlarimizni saqlash uchun barchamiz shug‘ullanishimiz kerak, zarracha loqaydlikka yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish instituti, “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi, “Shon-sharaf” davlat muzeyi mas’ul xodimlari va yetakchi mutaxassislaridan iborat ishchi guruhga umumiy rahbarlik Mudofaa vazirligiga berilgani barchamizga katta mas’uliyat yuklaydi. Bu borada vazirlik rahbariyati tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha “yo‘l xaritasi” va chora-tadbirlar rejasi tuzilib, shunga muvofiq ishlar jadal olib borilmoqda.

Shubhasiz, mazkur qaror Mudofaa vazirligi tizimida ham ma’naviy-ma’rifiy ishlar ko‘lamining yanada kengayishiga xizmat qilib, Vatan posbonlari – mard va jasur askarlarning ajdodlarga hurmat ruhida tarbiya topishiga hissa qo‘shajak.

YUKSALISH – O‘ZLIKNI ANGLASHDAN BOSHLANADI

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan uning ma’naviy hayotida yangi davr – uyg‘onish, o‘zlikni anglash davri boshlandi. Ma’muriy buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo‘ysundirilgan tarixni soxtalashtirish, noto‘g‘ri talqin etishga barham berildi. Milliy mafkuramizning asosi bo‘lmish yurtimiz tarixini qayta tiklash imkoniyati tug‘ildi.



Baxtiyor HASANOV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori,
tarix fanlari doktori, professor

Bu borada mamlakatimizda olib borilgan eng xayrli va eng savobli ishlardan biri Sovet hokimiyati yillarida “xalq dushmani”, “aksilinqilobchi”, “millatchi”, “quloq” sifatida qoralanib, qatag‘on etilgan vatandoshlarimiz pok nomlarining oqlanishi bo‘ldi. Tarixiy haqiqat va adolatni tiklash bo‘yicha olib borilgan ishlar eng avvalo, hurriyat yo‘lida jon fido etgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratildi.

Toshkent shahrida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etilib, uning hududida Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tashkil etildi.

2017-yilda ushbu muzey tarixida o‘ta muhim voqea sodir bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘sha yilning 31-avgustida “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” munosabati bilan bu maskanga tashrif buyurganida uning faoliyatini yanada rivojlantirish hamda viloyatlarda ham muzeyning bo‘limlarini ochish tashabbusini o‘rtaga tashladilar. Davlatimiz rahbari ana shu muzeylarni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun muqaddas ziyoratgoh, ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘iga aylantirish uchun barcha choralarni ko‘rish zarurligini alohida ta’kidladilar.

Shunga asosan 2017-yil 22-noyabrda Hukumatning “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Shu tariqa muzey Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o‘tkazilib, uning faoliyati yanada kengaytirildi va takomillashtirildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi 13 ta oliy ta’lim muassasasi tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etildi. 2021-yilda davlat rahbarining topshirig‘iga binoan Qarshi shahridagi Odina masjidida Qashqadaryo viloyati Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi yangidan yaratildi. Sovet davrida NKVD qamoqxonasiga aylantirilgan ushbu tarixiy obidada tashkil etilgan muzey 2021-yilning 11-oktyabrida Yurtboshimiz ishtirokida tantanali ravishda ochildi.

2020-yil 8-oktyabrda “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmoyishining qabul qilinishi esa shahidlar xotirasini abadiylashtirish borasida olib borilayotgan ishlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Mazkur hujjat asosida mamlakatimiz hududlari kesimida 14 ta “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitoblari tayyorlanib, unga 40 mingga yaqin vatandoshlarimizga oid ma’lumotlar kiritildi.

Qarorda belgilab berilgan vazifalar, shubhasiz, 1937–1953-yillar mobaynida yuz bergan ayanchli qatag‘on siyosatining eng nozik qirralarigacha tadqiq etishda hamda yurt, millat uchun aziz jonlarini qurbon etgan jadid bobolarimizning hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ushbu qarorda ko‘p jildlik “Qatag‘on qurbonlari” kitobini chop etish, Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasiga ramziy kitobni o‘rnatish, oktyabr oyining birinchi haftasini mamlakatimizda “Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi” sifatida nishonlash ko‘zda tutilgan.

Jumladan, mutasaddilarga qatag‘on etilgan ajdodlarimizga bag‘ishlangan sahna asarlari va filmlar tayyorlashga doir topshiriqlar berilgani bu boradagi ishlarning ko‘lamini yanada kengaytirishga zamin hozirlaydi. Ayniqsa, chet eldagi turli fondlar, arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikda qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini tadqiq etishga doir ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish vazifasi belgilangani ayni muddao bo‘ldi. Chunki ushbu tashabbus yurt taraqqiyoti, sobiq tuzum davrida Vatan ravnaqi yo‘lida hayotini tikkan mard va jasur bobolarimizning ayni damda xorijda saqlanayotgan merosini o‘rganish borasida yangi imkoniyat eshigini ochadi.

Bir so‘z bilan aytganda, tarixiy xotirasi bo‘lmagan, o‘tmishini unutgan, ajdodlarini qadrlamaydigan millatning istiqboli yo‘q. Yuksak maqsadlar sari intilayotgan Yangi O‘zbekistonda esa tarixiy adolat qaror topib, milliy an’analar, qadriyatlar ulug‘lanib, xalqimizning asriy orzu-armonlari ushalmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yangi qaror ham bunga yana bir yaqqol dalil bo‘ldi.

AJDODLARINI E’ZOZLAGAN XALQ KAM BO‘LMAYDI

Kamina qariyb yarim asrdan ko‘proq O‘zbekistonda, Markaziy Osiyoda qatag‘on qurbonlari fojiasini tadqiq etish bilan shug‘ullangan, bu mavzu bo‘yicha 30 dan ortiq asarlar, 100 dan ortiq ilmiy maqola e’lon qilgan, respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda shu mavzuda chiqishlar qilgan tadqiqotchi sifatida Prezidentimiz tomonidan imzolangan mazkur qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini yuksak baholayman.

Chindan ham so‘nggi yillarda O‘zbekistonda siyosiy, mafkuraviy, ma’rifiy va baynalmilal ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu masalaga sobiq ittifoq respublikalari orasida eng ko‘p va jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Qatag‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan kitoblar har bir viloyat bo‘yicha nashr etilishi, barcha hududlarda Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil qilinishi va ularning samarali faoliyat ko‘rsatayotgani hamda ular qatag‘on qilingan shaxslarning hayoti va merosini o‘rganish bo‘yicha o‘ziga xos ilmiy maskanlarga aylangani barchamizga ma’lum.



Rustam SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor

Qarorda hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma’lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, inson, uning haq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash muqaddas burchimiz ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Qarorda chor Rossiyasi va sovet mustamlakachiligi davrida qatag‘on qilingan yurtimiz farzandlarining fojiali taqdirini keng ko‘lamli va rejali tarzda tadqiq etish hamda natijalarini ommalashtirish, o‘sha davrning atay sir tutilgan jumboqlarini ochish vazifalari qo‘yilgan. Biz ushbu qarordan behad ilhomlanib, qatag‘on qurbonlarining fojiali kechgan shonli hayotini sinchkovlik bilan o‘rganish borasida bor kuch-g‘ayratimizni ishga solishimiz, bu yo‘nalishdagi tadqiqot va nashr ishlarini yangi bosqichga olib chiqish uchun astoydil harakat qilmog‘imiz lozim.

QABOHAT SALTANATI

SHE’RIY ROMANDAN PARCHA



Kuni kecha O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, hassos shoira Sharifa Salimova shu munosabat bilan tahririyatimizga tashrif buyurib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori haqida to‘lqinlanib so‘zladi va o‘zining mavzuda yaqinda yozib tamomlagan “Qabohat saltanati” she’riy romanidan parcha taqdim qildi.

Adabiy-nazariy qoidalarga ko‘ra roman janrining turlari ko‘p. Roman hali shu kunga qadar shakllanishda, yangilanishda davom etayotgan va ulkan imkoniyatlarga ega janr sanaladi. Shu e’tibordan, ayniqsa, she’riy roman ijodkordan ikki tomonlama mahorat talab qiladi. Birinchidan, qahramonlar muhitini teran tasavvur qilish. Ikkinchidan, ijodiy tafakkur mahsulini muayyan nazmiy qoidalarga mos ifoda etish. Iste’dodli shoiramiz Sharifa Salimova “Qabohat saltanati” nomli she’riy roman bitib, ana shunday mas’uliyatli va og‘ir vazifani mahorat ila uddalabdi.

O‘rta asrlarda Yevropada ro‘y bergan mudhish qatag‘onni muarrixlar “Varfolomey kechasi” deb atashadi. Shu bir qonli tunning o‘zida o‘n minglab odamlar qirib tashlangani qanchadan-qancha asarlarga mavzu bo‘lgani kitobxonlarga yaxshi ma’lum.

Mustabid sovet tuzumi davrida esa “bunday kechalar” oylarga, yillarga aylangan. Birgina 1937-1938-yillarning dahshatli kechalarida minglab vatandoshlarimiz, millatning oydinlari, jadid fidoyilari qamoqqa olinib, vahshiylarcha qiynoqqa solingan. Ularning har biri mustaqil shaxs, ya’ni siz-u biz kabi issiq jon edi. Millat taraqqiyi, mamlakat yaxlitligi yo‘lida shahid ketgan ajdodlar xotirasini yod etish, ayanchli qismatlar tarixidan tegishli xulosa chiqarish va yoshlarga o‘tmishning murakkab jihatlarini ro‘yrost tushuntirish bugungi ziyolilarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Dunyo va o‘zbek adabiyoti tarixida she’riy romanlarning sanog‘i ko‘p emas. “Jadid” gazetasi jamoasi, Abdulla Qodiriy ta’biri bilan aytganda, “havasida jasorat etgan” shoira Sharifa Salimovani qizg‘in qutlaydi. Qatag‘on qilingan jabrdiyda ayollar kechmishiga bag‘ishlangan she’riy romandan Kimyoxon Ashurova taqdiridan hikoya qiluvchi parcha gazetxonlar e’tiboriga havola etilmoqda.

KIMYOXON

Tun... G‘irchillar arava. Qon yig‘laydi go‘daklar:
“Ona, qayga ketyapmiz? Topib bering otamni!”
Ayol – ko‘zi to‘la yosh. So‘z kirmaydi quloqqa,
Azob ila xotirlar boshga tushgan motamni.
“Axir qayga ketyapmiz? Bir nima deng, birodar,
Uch go‘dagim nolasi qilmoqda-ku bag‘rim qon...”
Aravakash gung, soqov. Otga qamchi bosadi,
Yoprilib kelar zulmat, yutay deydi biyobon.
“Axir qayga ketyapmiz?”
Zulmat bermaydi javob;
Sukut saqlar oymomo, ko‘kdagi yulduzlar ham...
Axir bu ne ko‘rgulik? Javob ber, sotqin dunyo?
Nafrat ko‘zim ko‘r qildi, muzlab bormoqda tanam,
Arava g‘irchillaydi, yo‘l esa adoq bilmas,
Bolalarin bag‘riga bosadi ona behol.
Kel, oppog‘im Dinara, kenjatoyim Klara,
Mening aqlliginam, yupatguvchim Rozajon.
...Uxlab qolar bolalar, kiprigida qotib yosh,
G‘irchillagan arava azoblardan so‘ylaydi.
Yomon tush ko‘rib, yig‘lab, ingraydi jajji Roza,
Tushda ham u: “Otajon, qaydasiz?” deb qo‘ymaydi.
Tun oxirlab boradi. So‘na boshlar yulduzlar,
Yaydoq biyobon uzra turar bir kulba mahzun.
Devollari to‘kilgan. Bemorday aftodahol,
Uning devollariga singib ketgan qora tun.
Aravakash tosh misol uloqtirar tugunni,
So‘ng ortga uchib ketar, so‘z demasdan ayolga.
Hayhotdek yalanglikda haykaldek qotar ayol,
Zo‘rg‘a suyanganicha juldur bo‘lgan devolga.
Na eshik, na deraza... Na bir chiroq, na qozon...
Vayrona tomi uzra boyqush qiladi nola.
Na bir parcha palos bor, na bir tishlam qora non...
Bergulikka eshikdan so‘rab kelsa devona.
Shumi inson qismati – peshonaga yozilgan?
Zo‘rg‘a lipillab yonar zulmatda umr shami.
U ishongan Vatani nahot shuncha bo‘ldi xor,
U ishongan Vatani... Yo Rab, qullar Vatani...
Erining qo‘lidagi shiqirlagan kishanlar,
Tunda nogoh bostirib kirib kelgan jallodlar,
Hayvondek tepkilashib, turtib, haqorat qilib,
Olib ketishganida ko‘kni tutgan faryodlar...
Go‘daklar ko‘zidagi qo‘rquv, dahshatli so‘roq,
“Otajon, ketmang”, deya tunni titratgan nola...
Nogoh bo‘ron zarbidan chilparchin bo‘lgan chiroq.
“Vatan xoini!” degan mudhish tuhmat, bahona…

* * *

Tong hali otib-otmay qishloq ahli, xonadon,
Dashtga yo‘l olishadi, kimda non, kimda ketmon.
Kimdir tandir quradi, kimdir tancha o‘rnatar,
Vayrona kulba dashtda mayib qush kabi yotar.
Kimyoxon go‘yo soqov, sarv qaddi bo‘lib dol,
Uchta bolasi bilan o‘ltirar aftodahol.
– Qizim, boshingni ko‘tar! – Yig‘lamsirar otaxon, –
O‘rinboy o‘g‘lim menga uylar olib beruvdi.
Saraton quyoshida bo‘lgan edi soyabon,
Issiq-sovug‘imizda yonimizda turuvdi.
Seni tashlab qo‘ymaymiz, artgin ko‘zing yoshini,
Uyingni buzganlarni, qizim, sen Xudoga sol!
Bolalarimni chaqir, biz ul-bul olib keldik,
Ularni to‘ydir, qizim, o‘zing ham qon yig‘lamay,
Endi bir tishlamgina u-bu narsadan yeb ol!
…Odamzod orasida qo‘rquv va hadik kezar,
Bosh ko‘tarmoqqa qo‘ymas qon ichuvchi qatag‘on.
Musibatga g‘arq bo‘lgan oila kemasini,
Najot posboni bo‘lib qutqarar asl inson.
Bahor o‘tdi, yoz o‘tdi, yana qaytib keldi qish,
Uzilmas xalq qadami, “rahmat”, deb yig‘lar ayol.
Tunlari oy sirdoshi, do‘sti dasht-u biyobon,
Yoridan xabar yo‘qdir… bag‘rini tig‘lar ayol.



Rasmni sun’iy intellekt chizgan.

* * *

Bir kuni qishning uzun tunlarida o‘ltirib,
Ko‘z yoshi ko‘lob bo‘lib, kashta tikayotgan dam.
Eshik bexos ochilib, g‘arib kulba ichiga
To‘satdan kirib keldi muzdek notanish odam.
Egnida uzun palto, qo‘lida charm qo‘lqop,
Kepkani ko‘zigacha bostirib olgan kishi.
Chiroq shu’lasidagi yiltirab turgan nigoh,
Unga eslatar edi juda yaqin tanishni.
Uning yuziga qarab, yorilay dedi yurak:
– Bu axir xo‘jayinim boshga ko‘targan inson.
Tun-u kun birga bo‘lgan yalakat mag‘izlarday,
Ananyev degan axir yordamchisi jonajon.
O, xushxabar keldimi, jonimdagi jonimdan,
Biz endi uyga qaytib yashaymizmi xotirjam?
Uning mashinasida ayol ketarkan mas’ud,
Tinmay qiyqirar edi o‘n oylik Klara ham.
Ko‘nglida guvlar edi umid alangalari...
Biroq ko‘rganlari tush, haqiqatdan ko‘p yiroq.
Qamoqxona oldida to‘xtab mashina bul dam,
Zarb bilan ichkariga uni itardi shul choq.
O‘n oylik qizalog‘in ko‘zda yoshi shashqator,
Bag‘ridan yulib olgach, u yiqildi yuztuban.
U ketdi. Jallod ketdi. Ayg‘oqchi, soya ketdi,
Odam ko‘rinishida yurgan makkor yosuman.
So‘ngra ne bo‘ldi o‘zi... Elas-elas xotirda,
Farishta qizalog‘in bo‘zlab izlaganlari.
Turma panjarasiga chirmashib, boshin urib,
– Uying kuysin, jallodlar, – deya bo‘zlaganlari.
Xudoga nola qilib, yolborib, qo‘lin ochib,
Dushmanni qo‘sha qo‘llab, Xudoga solganlari.
Guldek norasidalar uvoli tutsin, deya,
Tuz totmayin necha kun, och-nahor qolganlari...

* * *

– Necha bor behush bo‘lib, unutib tun-u kunni
Kun sayin kuz gulidek so‘layotgan o‘sha dam.
Turmaning rangi zahil shafqat bilmas rahbari
Haqoratlarga ko‘mdi nogoh titratib tanam.
– Xalq dushmanin xotini! Nima, biz bilmaymizmi,
Ering sirini hanuz sen yashirib netasan?
Agar oshkor qilmasang, bizni ogoh qilmasang,
Quyosh yuzini ko‘rmay itdek o‘lib ketasan.
O‘ylab ko‘r, hali vaqt bor…

U shundayin degancha
O‘zga mahkumalarni tuta ketdi savolga.
Jovdiragan, umidsiz, o‘ta so‘nik nigohlar
O‘xshardi tuman ichra qirov bosgan hilolga.....

* * *

Unsiz nola qilardim men samoga termilib,
Qor kabi oppoq bo‘ldi boshda tim qora tolam.
Liboslarim sutdan ho‘l... men dod solib yig‘ladim,
Ichikib sog‘inganda meni o‘n oylik bolam.
– Alla-yo, bolam, alla,
Ko‘zlari qoram, alla.
G‘am suviga qorilgan
Baxtsiz zuvolam, alla.
Alla, alla…
– Bolangni sog‘indingmi?
Hushim uchdi boshimdan.
Tergovga olib ketdi, jallod qo‘limdan tortib.
– Mana bu hujjatlarga imzo cheksang bo‘lgani,
Bolangning huzuriga yana borasan qaytib.
Erim xalq dushmani de, aksilinqilobchi de,
Sovet hukumatini ko‘radi degin yomon.
Uni ag‘darmoq uchun ittifoq tuzgan, degin,
Degin, erim davlatning qo‘ynida yotgan ilon.
Qani qo‘l qo‘y...
– Yo‘q, yo‘q, yo‘q. Erim pokiza inson!

* * *

Tunlari yana betin men yolvordim Xudoga:
– Farzandlarimni bir bor ko‘rsam-u, mayli o‘lsam...
Bir kuni tong mahali tush ko‘rdim qo‘rqinch, og‘ir:
Klaramni otasi olib ketmoqda edi.
– Bolajonim, qayt, – deya charx urib yig‘lar edim,
Axir emiziklisan, ko‘krak to‘la sut edi.
...Klara kulib-kulib, ketarmish ortga boqmay,
Otasining qo‘llarin ushlagancha u mahkam.
...Cho‘chib ko‘zimni ochsam sovuq ter bosgan edi,
Bejo urardi sho‘rlik bu baxtsiz yuragim ham.
Dunyolarga sig‘masdim. Qil o‘tmasdi tomoqdan...
Bir nuqtaga tikilib, yig‘layverdim o‘ksinib.
Shu payt eshik ochilib, meni so‘roqlagancha,
Bir ayol shoshganicha xonaga keldi kirib.
“Qizing Klaramidi?” U so‘zlardi xotirjam,
Mening esa yuragim nogoh qo‘rquvga to‘ldi.
“U bolalar uyida”, ko‘zimga tik boqdi-yu,
Dedi: “Erkatoy qizchang kecha ochlikdan o‘ldi”.

* * *

Oh, qandoq toqat qilay, yiqildim bo‘lib behush…
Ko‘z ochsam atrofimda yig‘lardi mahkumalar,
Tashqarida qahraton… kezib yurar edi qish.
– Kimyoxon, ko‘zingni och, mening ham bolam o‘lgan,
Sog‘inib ado bo‘ldim, jigar-bag‘rim bo‘ldi qon.
U meni quchganida bahorga aylanardim,
Go‘yo farishta edim, deganida “onajon!”
Tur o‘rningdan, kuchli bo‘l, o‘lmoqlik juda oson,
Yashamoq behad og‘ir, yashamoqlik buyuk sir.
“Do‘stlarim, tayyor bo‘ling, ham ruhan, ham vujudan,
Chiniqish kerak. Bizni kutmoqda endi Sibir”.
“Yarq” etib ochildi ko‘z, tarqadi xira tuman,
Ayollar yuz-ko‘zimni silashib quchar mahkam…
Ruhim ingrab shivirlar: “Ko‘krak kergin qoyadek,
Biz kuchlimiz, Kimyoxon, hattoki o‘limdan ham!”

* * *

Krasnoyarskda qor gupillab yog‘ar,
Enasoy daryosi oqadi sokin.
Mahbusman, kunlarim azobda o‘tar,
Vatan sog‘inchini olib kelar tun.

* * *

Odamzod ko‘nikar baxt-u bayramga
Va qachon keladi boshiga motam.
Mening peshonamga yozilgan taqdir,
Yozsam tugamaydi hatto kitob ham.
Qatag‘on bu ham bir ko‘rgulik edi,
To‘yib insonlarning qonini ichgan.
Gulday vujudlarga, o‘rik guliga,
Qop-qora libosdan kafanlar bichgan.
Men kichik hujrada – yog‘och barakda
Otamni eslardim bir so‘z qotmay jim.
Qahraton bag‘rida daraxt kesardim,
Mahbuslarni terib ketardi o‘lim.
Ma’dan konlarining biqiq havosi,
O‘pkamni achitib oldirmas nafas.
Muzlagan qo‘llarim kutardi tunni,
Hadik, qo‘rquv – o‘lim isi aralash...
Hunarim ish berdi zulmat qo‘ynida,
Kimdir chevarligim qaydandir bildi.
Bir kuni qishloqdan yoshgina ayol,
Jajji qizchasini yetaklab keldi.
Qizcha – ipak sochli, ko‘zida quyosh,
Momiq qo‘llarini menga tutardi.
Yuragim qinidan chiqquday urar,
Jajji Klaramga o‘xshab ketardi.
Qaniydi bag‘rimga bir bora bossam…
U o‘z tilchasida sayrardi chunon.
Tun bo‘yi uxlamay ko‘ylakcha tikdim,
Tikkan choklarimga ko‘zdan tomdi qon.
Mahbusa… Bor-yo‘g‘i shu bir og‘iz so‘z…
Mening borligimni ko‘rsatgan raqam.
Tizzagacha qorda bazo‘r sudralish,
Go‘yo yer tubiga tortguvchi qadam...
O‘lmoq kerak, o‘lmoq, tez ketmoq kerak,
Ruhimni titkilab o‘ynasa iblis.
“Oyijonim” deya quchardi mahkam,
Uchta farishtadek tong nafasli qiz.
O‘tayotgan kunlar yil kabi uzoq,
Burdalab o‘yardi aziz jonimni.
Emizikli qizim, go‘dakkinam, oh,
Xayoli kuydirar xonumonimni.
Oh, desam, og‘zimdan otiladi qon,
Jajji barmoqlarin taftini sezib...
Sut hidi anqigan go‘dak sog‘inchi...
Kimdir yuragimni oladi uzib…

Sharifa SALIMOVA

TAASSUF

AJRIMLAR AJRI

barchamizning yelkamizga tushmoqda



Raqamlar haqiqatni belgilovchi mezon. O‘sish-u pasayishlarni raqamlarni taqqoslash orqali bilamiz.

Endi ushbu ikki raqamga e’tibor qarating:

2022-yil – 2550...

2023-yil – 2694...

Ushbu ikki raqamga ko‘zi tushgan odam beixtiyor quvonishi aniq: “E, zo‘r-ku! Bir yilda shuncha o‘sishga erishilibdi. Bardavom bo‘laversin!”

So‘nggi tilakni aytishga shoshmay turing!

Ming bora afsuslar bo‘lsinkim, bu yerda keltirilgan raqamlar Xorazmda so‘nggi ikki yilda nikohdan ajralish bo‘yicha sudlarga kelib tushgan arizalar sonini ko‘rsatyapti.

Masala (aslida o‘ta o‘tkir muammo) zamiriga kirishdan oldin fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat sudidan olingan ma’lumotni ko‘zdan kechiraylik: 2023-yil davomida sudlarda nikohdan ajratish haqida jami 2694 ta ish ko‘rib chiqilib, tamomlangan ishlardan 2427 tasi bo‘yicha hal qiluv qarori chiqarilgan. 1663 tasi bo‘yicha da’vo qanoatlantirilgan, 764 tasi rad qilingan, 42 ta ish yuritish tugatilgan va 225 tasi ko‘rmasdan qoldirilgan.

Xorazm viloyatida besh yuz o‘ttiz bir mahalla bor. (Uch shahardagi mahallalar ham shu hisobga kiradi). Har bir mahallada o‘rtacha 600-700 atrofidagi xonadon bo‘lib, ularning har birida o‘rtacha uch yarim ming odam yashaydi. Har bir xonadonda o‘rtacha ikki yarim oila bor. Demak, yuqoridagi ajrimlar sonini taqqoslasak... yoqamizni ushlashimiz aniq. Har yili o‘rtacha bir mahalla xonadoniga teng oilalar barbod bo‘lyapti ekan-da. Yoki har mahallada bir yilda o‘rta hisobda beshta oila ajralish haqida da’vo arizasi berganining o‘zi g‘oyatda achinarli holat emasmi?

Nahotki, deymiz!

Nimalar bo‘lmoqda, deb qo‘shib qo‘yamiz.

Yaqin-yaqinlargacha hozirgi uch-to‘rtta mahallani birlashtirgan qishloqda bir oila ajralishibdi degan xabar hammani larzaga solar, bu shumxabar oylab muhokamalarga sabab bo‘lardi. Qariyalar to‘y-ma’raka davralarida bosh chayqagancha “Falonchi ikki bolasini tirik yetim qilibdi – xotini bilan ajrashibdi. Elatida aql beradigan, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadigan oqsoqollar yo‘qmi? Axir buning so‘rovi bor”, deb afsuslanib o‘tirishardi. Hozir esa bu oddiy gapga aylanib qolgan. To‘g‘risi, hammamiz ko‘nikib ketganmiz...

Yana ajralish bo‘yicha da’vo arizalarini ko‘rib chiqayotgan sudlar (ularga ham oson tutmang) faoliyatiga qaytamiz.

Da’vo arizalarini ko‘rib chiqqan sudlar qonunlarda belgilangan tartibda ikki tomonni yarashtirish maqsadida ularga ma’lum muddat berishgan, bundan tashqari Xorazm viloyat sudi va viloyat hokimligi o‘rtasida tasdiqlangan memorandum ijrosini ta’minlash, oilaviy ajralishlarning oldini olish uchun viloyat prokuraturasi bilan hamkorlikda tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, har bir shahar va tumanda oila va xotin-qizlar boshqarmasining quyi tuzilmalari ishtirokida bir qator chora-tadbirlar muntazam o‘tkazilyapti. Aynan shu memorandumda belgilangan tartibda 2023-yil davomida 1664 ta nikohdan ajratish haqidagi ishlar bo‘yicha muddat belgilanib, joylardagi yarashtirish komissiyalariga yuborilgan. Nikohdan ajratish uchun yetarli asoslar bo‘lmaganligi, kelgusida taraflarning oilani tiklash choralarini ko‘rish imkoniyati mavjudligi sababli 1031 ta da’vo ariza qanoatlantirilmasdan joylardagi yarashtirish komissiyalariga 60 ta xususiy ajrim ham chiqarilgan. Sudyalar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko‘rish jarayonida taraflarni yarashtirish bo‘yicha tushuntirishlar olib borilishi natijasida 35 ta oila saqlab qolingan...

Bosh Qomusimizda “Oila – jamiyatning bosh bo‘g‘ini”, deb e’tirof etilib, u jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lishi belgilangan. Davlat tomonidan oila muhofazasi uni saqlab qolishda amaldagi qonunlarni qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda qonun va qonunosti hujjatlari ishga tushadi.

Jamiyat tomonidan muhofaza qilinishi esa... maslahat tariqasida bo‘ladi. Ya’ni yarashtirish komissiyalari a’zolari jamoatchilikni jalb qilgan holda yosh oilalarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, ajrashishlarga sabab bo‘lgan moddiy va ma’naviy (axloqiy) omillarni o‘rganib, imkonlari qadar ikki o‘rtada ko‘prik vazifasini o‘taydilar.

Kamina o‘n yilcha mazkur komissiya faoliyatida jamoat faoli sifatida qatnashganim uchun bu jarayonlardan yaxshi xabardorman va taassufki, odatda yosh oilalar buzilib ketishiga ko‘p hollarda ota-onalari sababchi ekaniga guvoh bo‘lganman.

Yarashtirish komissiyasiga taklif qilingan kelin va kuyov bir yoqda qolib, ota-onalari dardlarini dasturxon qilishadi: “Qizim bu xonadonga kelin bo‘lib tushganiga besh yil bo‘lyapti. Ikki farzandi tug‘ildi, ammo haliyam qaynona va qaynotasi xizmatidan bo‘shamayapti. Qachon o‘zlari mustaqil ro‘zg‘or tebratadi, degan shartni qo‘ysam qudam o‘g‘liga alohida imorat tiklash uchun mablag‘ yig‘ayotganini aytishdan charchamaydi. Bu ketishda qizimning umri birovning uyida o‘tib ketadi-ku!”. “Qizimni universitetda o‘qitdim. Farzandli bo‘lib, tug‘uruq ta’tilidan keyin qudam qizimni ishlatmayapti. Oladigan maoshiga zor emasmish”. “Qudam to‘yda qarz olgan ekan. Endi shu qarzini uzish uchun o‘g‘lini va qizimni xorijga ishlashga yubormoqchi. Qizim umrida begona yurt u yoqda tursin, o‘zimizda ham birovning eshigida ishlagan emas. Men, nima endi, qizimni birovlar eshigida cho‘ri qilaymi?”, “Kuyovimiz ichkilikka berilgan – ro‘zg‘orida tinchlik yo‘q. Qizim yetti yil oldin kelinlik vaqtidagi kiyimlarini kiyib yuribdi. Bu xonadonga tushganidan beri ustiga kiyim u yoqda tursin, dastro‘mol ham olgani yo‘q!”, “Mening qon bosim kasalim bor, kutilmaganda oshib ketadi. Shu vaqti menga qarov kerak bo‘ladi. Qudamiz esa qizimizni har ikki oyda bir marta yuboradi. Unda ham tunab qolishiga qo‘ymaydi”. “Men qizimni yaxshi kiyintirib, yaxshi ichirib-yedirib katta qilganman. Bu tushgan joyida haftasi bir marta tishiga go‘sht tegmaydi”. “Qizim qo‘lini sovuq suvga urmay o‘sgandi. Bu qudamiz esa har kuni sigir sog‘asan, tovuqlarga qaraysan, deb kun bermaydi...”

Yarashtirish komissiyasida quda tomonlarning bir-birlariga da’volari (to‘g‘rirog‘i, tosh otishlari)dan bir necha parchalar keltirdik, xolos. Sezdingizki, yarashtirish komissiyalarida so‘z oladiganlarning aksari ayollar – kelinning onasi yoki qaynonasi.

Huquqiy jihatdan ular “uchinchi tomon” deyiladi. Aynan shu “uchinchi tomon” aksar oilalarning barvaqt zavol topishida ko‘proq aybdor.

Xonqa tumani hokimligi matbuot xizmati rahbari bo‘lib ishlagan kezlarimda – uch yil oldin – bir sayyor qabulda navbat kutib o‘tirgan ayolning yonidagi kishiga maqtanayotgani nogoh qulog‘imga chalindi: “Qarasam, qizim bu yaqinda qaynotasidan bo‘laklanib o‘z uyiga ega bo‘ladigan emas. Yolg‘iz ayollarga turar joy berilishi, yana subsidiya degani ajratilishini eshitib, qizimni eridan ajratib oldim. Shunga hokimdan qizimga uy olishda subsidiya so‘ramoqchiman. Bermay ko‘rsin, Prezidentimizning qarori bor!”

Bu gapga yoqa ushlaysiz xolos. Ikki xonali uy orzusida qizini erdan ajratib, nevarasini tirik yetim qilish qaysi insoniylik mezonlariga sig‘adi? Nahotki, oiladek muqaddas qo‘rg‘on arzimas moddiyat uchun zavol topayotir? Oila tinchligi, farzandlar kamoli asl baxt emasmi? O‘zidan zurriyot qoldirayotgan banda o‘tkinchi hoy-u havaslarga shu qadar mukkasidan ketgan bo‘lsa?

Alohida yashashni bosh sabab qilayotganlarga qarata yarashtirish komissiyasida mahalla imom-xatibi bildirgan fikrda jon bor: “Prezidentimizga rahmat. Farzandini yolg‘iz tarbiyalayotgan onalarga subsidiya asosida turar joy bermoqdalar. Yetimning boshini silash – dinimizda ham eng savobli amal hisoblanadi. Ammo aynan subsidiya asosida turar joy olish uchun qizining oilasini buzib, eridan ajratib olayotganlar ham bor. Aslida imtiyozlar otasi yoki onasi vafot etgan g‘irt yetimlarga berilishi kerak! Tirik yetim, ya’ni ota-onasi ajrashib, ulardan biri qo‘lida qolgan bolaning onasiga bu tarzda imtiyoz berilishi kelgusida ko‘plab oilalar ajralib ketishlariga turtki bo‘lishi mumkin!”

Imom-xatibning fikrini fuqarolik ishlarida qatnashadigan advokat tanishim ham tasdiqlaydi: “Men advokatlik qilgan aksar ishlarda aynan “imtiyoz egasi” bo‘lish uchun ota-onasi arzimagan bahona bilan qizlarini turmushdan ajratayotganlariga guvoh bo‘ldim. Hatto, birisi uyalmasdan o‘z “rejasi”ni aytgan: “Qizimni ajratib oldim. Subsidiya orqali uy olgach yana eri bilan yashayveradi...”

Kuyovi qo‘pol, ichib kelib kaltaklashlaridan bezor bo‘lganidan sudga murojaat qilgan ayollarni tushunish mumkin. Hamma ham oilasi tinch, bolalari sog‘lom, hayoti osoyishta bo‘lishini istaydi. Lekin, arzimas nizo – oiladagi vaqtinchalik qiyinchiliklar sabab sud eshigida yuguradiganlarni oqlab bo‘lmaydi. Bu jarayonda ikki yosh tajribasizlik qilibdi deylik, ammo hayotning achchiq-chuchugini totgan ota-ona nega befarq? Befarq emas, aksincha, shu mayda nizoni ko‘pirtirib, qo‘llashayotganlariga nima deysiz?

...Yopiq tarzda o‘tgan sud majlisida ko‘rib chiqilgan da’vo arizasi mazmuni – kelinning xiyonati. Uni qo‘shnisi bilan ushlab olishgan. Eri esa uch yilki, chet elda ishlayotgan ekan.

Bu o‘rinda yarashtirish komissiyasi ojiz. Tomonlarga yarashish haqida taklif berishga til bormaydi. Hayotning achchiq sinovi degancha sukut saqlaysiz.

Ajralish uchun sudlarga berilgan arizalarni ko‘rib chiqish vaqtida duch kelinadigan yana bir holat bor. Kelin eri yoki qaynonasi bilan kelishmay, besh oy oldin ikki farzandini olib onasinikiga ketib qolgan. Bu yoqda yigit yangidan kuyov libosini kiygan – uylanib olishga ulgurgan. Sud majlisiga shu xotini bilan yetaklashib keladi. Yangi kelinning homilasi sezilib turadi. Sudya bu holatda nima qilishini bilmaydi. Yarashish uchun muddat berish mantiqsiz.

...Aholi adadi ikki millionga yaqinlashgan bir viloyatdagi holat haqida fikr yuritdik. Oilaviy ajralishlar yil-yildan ko‘payib borayotgani sabablarini o‘zimizcha taxmin va tahlil qildik. Balki mahalla faollari, mas’ul tashkilotlar reja asosida olib borayotgan targ‘ibot-tashviqot tadbirlari ta’sirida ajralishlar amaldagi yilda kamaygandir degan yaxshi gumonga borib, yilning o‘tgan davri – olti oyida bu boradagi holatni ifodalovchi raqamlar bilan qiziqdik. Afsus, yaxshi gumonimiz o‘zini oqlamadi...

Aslida bu boradagi vaziyat butun mamlakatimizda yaxshi emas. Ijtimoiy tarmoqlarda yoyinlangan rasmiy ma’lumotlarda respublikamizda oilaviy ajrimlar yil-yildan ko‘payib borayotgani qayd qilingan.

Oila barbod bo‘ladi. Ikki o‘rtada bolalar tirik yetim bo‘lib qolishadi. Javobgar tomondan jabrdiyda foydasiga aliment ham undiriladi. Go‘yo shu bilan muammo faqat ikki shaxs – ajrashgan er-xotinga taalluqlidek bo‘lib tuyuladi. Aslida esa ajrimlar ajrini butun jamiyat – siz-u biz ham tortamiz. Eridan ajralgan ayol ehtiyojmand sifatida “Ayollar daftari”ga kiritiladi. Ehtiyojmand oilaga davlat tomonidan moddiy yordam ajratiladi va hatto, vaqti kelib farzandlari oliygohlarga o‘qishga kirganida kontrakt to‘lovlari ham to‘lab beriladi.

Kim tomonidan? Davlat tomonidan, albatta! Davlatimiz shu mablag‘larni boshqa maqsadlarda ishlatishi mumkin edi-ku! Minglab shunday oilalarga ajratilayotgan moddiy yordam pullari milliardlarni tashkil qiladi, axir. Bu pullarga qanchadan qancha korxona qurib, minglab yoshlarni ish bilan ta’minlash mumkin. Bu o‘rinda kattagina mablag‘ havoga sovurilyapti – arzimas bahonalar bilan barbod bo‘lgan va bo‘layotgan oilalar jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarish bilan bir vaqtda taraqqiyotimizga ma’lum ma’noda tushov ham bo‘lmoqda. Maqolamiz tagsarlavhasida boshida iddao qilganimizdek ajrimlar ajrini hammamiz teng tortmoqdamiz. Bu bizlarga – katta yoshli insonlarga jazo, aslida. Negaki, yosh oilalar ajralib ketishiga shunchaki tomoshabinlikdan boshqasiga yaramay qoldik...

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

BU KITOBNI O‘QIDINGIZMI?

Inson to‘qnashuvlarda kashf etiladi



Ijod – borliq va undagi voqelikni poetik idrok etish, olam va odamning mohiyatni zarrabindek teran nigoh bilan ko‘ra bilish, yer va ko‘k, ratsionallik va irratsionallik, botin va zohir o‘rtasidagi muvozanatni topa olish, g‘ayriixtiyoriy bir ichki ruhiy ehtiyoj o‘laroq yuzaga keladigan hol. Ijod bu – ilohiy holat.

Aslida olamdagi mavjud narsalarning barchasi – ijoddir. Azal me’mori tomonidan ma’lum bir tartib bilan yaralganlar orasida insongina sharafga loyiq ko‘rilgan. Negaki, inson o‘zini Yaratganni anglashni istaydi, uning boshqa barcha xohishlari zamirida ham ayni shu ehtiyoj yashirin. Ijodkor – o‘zini tanishga, anglashga urinayotgan shaxs.

So‘z san’ati ichida drama o‘zining murakkab adabiy turligi bilan ajralib turadi, unda roviylik ham, voqea ham harakatga singdirilgan. Shu bois bo‘lsa kerak, ehtimol, bizda bu adabiy tur chetdan o‘zlashgani va o‘ta murakkab janrligi uchun nasr va nazmdek taraqqiy qilmadi. Bundan, albatta, Fitratning “Abulfayzxon” va Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” dramalari istisno. Men adabiyotshunos olim, arab va fors tillarining zukko bilimdoni Nafas Shodmonov dramalarini o‘qib shunday xulosaga keldimki, ularda ratsionallik va irratsionallik uyg‘unlashgan. Dramaturgning mazkur saylanmaga kiritilgan to‘qqiz dramasi ham tariximizning eng murakkab davr voqealari, fojialari, turli qarashlar va munosabatlar, ziddiyatlar va oqibatlarni o‘zida badiiy sintez qilgan. Ularda qahramonlar taqdiri orqali umuminsoniy qismat, ayni vaqtda, abadiy adolat qonuni namoyon bo‘ladi.

Nafas Shodmonov dramalarining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri ularda bir necha pafos turlari uyg‘un, qorishiq tarzda keladi.

Dramani bir o‘qishda tushunish, unda yashirin falsafani anglash kitobxon, tomoshabindan muayyan bir tayyorgarlikni talab qiladi. Odatda, bunday asarlarni anglash uchun inson nafaqat badiiy adabiyotdan, ilohiy haqiqatlardan, falsafadan yaxshigina xabardor bo'lishi lozim. Nafas Shodmonovning aksariyat dramalari mana shunday xususiyatga ega.

Faqat o‘zbek adabiyoti tarixidagina emas, balki jahon adabiyoti va ilohiyoti bitiklarida ham Nuh payg‘ambar va uning davrida sodir bo‘lgan to‘fon to‘g‘risida, to‘fondan omon qolish uchun yasalgan payg‘ambar kemasidagi voqealar haqida talaygina rivoyatlar zikr etilgan. Ularni Injilda ham, Tavrotda ham, Qur’onda ham ko‘ramiz. Har bir ilohiy kitobda ular muayyan dinning bosh g‘oyasiga mos talqinda keltiriladi. Payg‘ambarlar haqidagi tarixiy rivoyatlar orasida ham mazkur voqealar mustahkam o‘rin olgan.

Ma’lumki, rivoyatga ko‘ra, yer yuzini to‘fon egallaydi. Nuh yasagan kemaga chiqqan jonzotlargina tirik qoladi. Ma’lum vaqt odamlar va turli maxluqlar kemada hayot kechiradilar. Bu davrda barchaning xulq-atvori namoyon bo‘ladi. Asar muallifi Nafas Shodmonov rivoyatning umumiy syujetini saqlab qolgan bo‘lsa-da, unga davrimizning eng muhim masalalari va ularning yechimini mahorat bilan singdira olgan.

Asarning “Nuh kemasi” deb nomlanishi o‘ziga xos ramziy ma’noga ega. Uni “Nuh qissasi”, “Nuh to‘foni” kabi yoki boshqa muayyan voqeaga urg‘u berish bilan nomlash ham mumkin edi. Biroq xalqimiz ta’biri bilan aytganda, “hammamiz bir kemadamiz”. Bugun ona zaminimizda yoxud sevikli diyorimizda hammamizning taqdirimiz, hatto jonzotlarning taqdiri ham tutash. Shunday ekan, “kema”dagi hech bir muammo hech birimizga begona emas.

Asarning asosiy voqealari kema ahlini adolat bilan idora etuvchi darg‘a, bemisl kuch sohibi – Nuhning atrofida sodir bo‘ladi. To‘g‘ri, dramada Nuhning moddiy qiyofasi (obrazi) yaratilmagan. Bu, ehtimol, musulmon an’anasini buzmaslik uchundir. Lekin uning xabar va hukmlari do‘sti Ilisha tomonidan e’lon qilinishi, ularning aks sadosi, kema ahliga ta’sir ko‘rsatishi payg‘ambar ma’naviy qiyofasining yanada salobatli tasavvuri yaratilishiga yordam bergan.

Tarix va bugun bir butunlik kasb etgan “Nuh kemasi”, “Yurt qadri”, “Hisobini bilganlar”, “Oqsaroy”, “Naxshab afsonasi” dramalarida baxt va baxtsizlik, muhabbat va xiyonat, rost va yolg‘on, adolat va zulm o‘rtasidagi kurash ko‘rsatilgan bo‘lib, ularda konflikt ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot, insoniyatning ilg‘or ma’naviy hayoti bilan bog‘liq holda hal etiladi. Mazkur dramalar bosh qahramonlari tomonidan aytilgan so‘zlar insoniyat uchun ogohlik kabi yangraydi, jamiyat uchun aybnomadek taassurot uyg‘otadi.

“Shiroq” dramasida voqealar janr tabiatiga mos ravishda o‘ziga xos shiddat bilan rivojlanadi. Bu shiddatni biz asarning istalgan kichik bir parchasida ham ko‘rishimiz mumkin. Lekin bu shiddatni dramaturg oldindan tayyorlab keladi. Dramada asosiy voqealarning hech biri to‘satdan, kutilmaganda sodir bo‘lmaydi. Tarixiy va badiiy haqiqat uyg‘un bir holda voqelikning yanada ishonchli va ta’sirchan aks etishini ta’minlashga xizmat qiladi.

“Baxshi” dramasida mustabid tuzum, totalitar Sovet siyosati, milliy qadriyatlarning oyoqosti bo‘lishi, zulm va zo‘ravonlik, yolg‘on va haqsizlik avj olgan davrlar ko‘rsatilgan. Unda “Yolg‘on gapni aytadigan zamon bo‘ldi, Otasidan qaytadigan zamon bo‘ldi...” deb qishloqma-qishloq, to‘yma-to‘y kezib yuradigan Tog‘ay baxshining qatag‘onga uchrashi, xotini Tojixolning bevaqt o‘limi, Sibirdagi og‘ir hayoti, boylar, eshonlar, mullalar, hur fikrli millatparvar munavvarlarning fojiali qismati aks etgan. Sovet tuzumining yugurdagi bo‘lgan Mahkam haqiqatni biladi, ammo u bosqinchilar bergan arzimas amalni millat va xalqdan ustun qo‘yadi. U baxshi haqida tan olib shunday deydi: “Lekin uning aytganlari... hammasi rost edi. Har kuni yolg‘on aytamiz, bir qishloqni ko‘rsak, o‘ntasini ko‘rdik, deymiz. Bir kishini dalaga olib chiqsak, o‘n kishini chiqardik, deymiz. Bizdan kattalar tepaga o‘n beshta deb xabar beradi... Endi, otasidan qaytish ham shu zamon bolalarining ishi bo‘lib qoldi. Nima qilsin? Dindor, boy, quloq otasiga ergashsinmi? Darvoqe, shuncha zamon otasiga ergashib keldi-ku, yashadi-ku. O‘sha zamonlar odamlar orasida oqibat kuchli edi... Lekin bu otalar bilan yangi zamonni qurib bo‘lmaydi-da...”


Mana shu qisqagina iqrorda butun bir jamiyatda hukm surgan ijtimoiy adolatsizlik ustidan aybnoma mavjud. Yillar davomida xalq qon-qoniga singib ketgan mutelik, o‘z haq-huquqi uchun kurasha olmaslik, zulm-u zo‘ravonlikka indamay ko‘nib yashashning asoratlari taraqqiyotdan ortda qolishimizga sabab bo‘ldi. Ko‘rinadiki, dramaturg tarixni ko‘rsatish orqali bugungi kunga uyg‘oq ko‘z, uyg‘oq ruh bilan nazar solishga chaqiradi. Zero, istiqlol bizga tariximiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, dinimiz bilan birga erkin fikr yuritish va o‘z mulohazamizni ayta olish imkonini berdi. Tarix va bugunni qiyoslash haqiqatni anglashimiz uchun eng tiniq, eng shaffof ko‘zgu. Dramaturgning tarixga qayta va qayta murojaat qilishdan maqsadi uning ijodiy konsepsiyasi, ijtimoiy-falsafiy fikrlarning badiiy sintezidir.

Ilm va ijodda serqirra Nafas Shodmonov olim, pedagog, ijodkor-dramaturg, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. Sharq tillaridan yaxshi xabardor nuktabin va nuktazarb olim, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohalarida o‘z nufuziga ega. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi musiqiy”, Ogahiyning “Shohid ul-iqbol” kabi asarlari bo‘yicha nomzodlik (1997) va doktorlik (2009) ilmiy tadqiqotlari olib borib, ularni ilmiy muomalaga kiritdi. Adabiyotshunos olimning 200 ga yaqin ilmiy ishlari chop etilgan. U temuriylar davri musiqa ilmi buyuk namoyandasi merosi haqida “Xoja Abdulqodir Marog‘iy” (2000), Birinchi milliy maqom anjumaniga bag‘ishlangan “Maqom nazariyasiga doir muhim manba” (2018) kabi bir qator kitoblarini nashr ettirdi. “Jahon adabiyoti” jurnali ta’sis etgan Ozod Sharafiddinov nomidagi mukofot sovrindori.

Nafas Shodmonov yozgan dolzarb mavzulardagi asarlar mamlakatimizdagi bir necha teatrlarda sahnaga olib chiqilgan. Men bu dramalarni qayta-qayta o‘qib, ularning hayotiyligi, falsafiyligi va ta’sirchanlik qudratini achchiq bir haqiqatning na’rasidek qabul qildim, yanada ochiqrog‘i, bu pyesalar – yashalgan dramalardir, chunki ulardagi dramatizm, tragizm, shaxslar, to‘dalar, qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, to‘qnashuvlarda inson asliyati kashf etila boriladi. Teatrga kirgan tomoshabin bilan qahramonlar o‘rtasida ma’naviy-ruhiy yaqinlik, katarsis holati paydo bo‘ladi. Bu fazilat esa mazkur dramalarning millat va vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan yurtdoshlarimizga ulug‘ ibratidir!

Ilhom G‘ANIYEV,
filologiya fanlari doktori

AKS SADO



TURKISTONGA MAKTUBLAR”

multimedia ko‘rgazmasi ish boshladi

Poytaxtimizda tashkil etilgan ko‘rgazma 5 ta alohida bo‘lmadan iborat bo‘lib, ilk zal “Erk va taraqqiyot orzusi” deb nomlangan, unda XX asr boshlaridagi Turkiston shaharlari va xalq turmushi aks etgan. Shuningdek, jadidlik harakati rahnamolari siymolari, yangi usul maktablari, ma’rifiy jamiyatlar faoliyati bilan bog‘liq surat va hujjatlar bilan birgalikda maktublar qismida Ahmadjon Shukriyning “Harakatda barakat”, Ahmadjon Ibrohim o‘g‘lining “Turkistonning kelgusi”, Xayrinisoning “Turkistonning taraqqiyot yo‘llari”, Majidxonning “Bilim yo‘lida” (“Ko‘paysin deyman”) maqolalari, toshkentlik talabaning ustoz Fitratga yozgan maktublari o‘rin olgan.

“Germaniya” zalida 1922-yil oxirlarida Turkiston va Buxorodan olmon tuprog‘iga qadam qo‘ygan 70 dan ortiq turkistonlik yoshlarning qizg‘in hayoti, muhim sohalar bo‘yicha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishi, korxona va muassasalardagi mehnat faoliyati aks ettirilgan. Maktublar qismida esa Abduvahhob Murodiy maktubi, Berlinda o‘qiyotgan talabalarning “Ko‘mak” jurnalida chop etilgan “Tilak” maqolasi va Botuning Xayriniso Majidxon qiziga atab yozgan “Kichik armug‘onim” she’ri berilgan. Shuningdek, Ertoy Sattor Jabborning “Germaniyada O‘rta Osiyo talabalarining ikki yili” maqolasi, keyinchalik buyuk olim bo‘lib yetishgan Hamid Sulaymonning Berlinda tahsil olayotgan Ahmadjon Ibrohimga yo‘llagan maktubi, Tohir Chig‘atoyning toshkentlik Saidnosir Mirjalilovga yozgan xatlari o‘rin olgan.

Uchinchi zal “Vatanga xizmat” deb nomlanadi. Mazkur zalda 1927–1936-yillarga qadar Germaniya va boshqa xorij ta’lim dargohlarida tahsil olib qaytgan yoshlarning yengil va og‘ir sanoat, elektrotexnika, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim sohalarida amalga oshirgan ulkan ishlari qiziqarli surat va materiallar orqali namoyish etiladi. Maktublar qismida Berlin oliy ziroat maktabini bitirib kelgan Abduvahhob Murodiy haqidagi “Birinchi diplomli agronom” maqolasi, Berlin dorulfununi meditsina fakulteti talabasi Bahovuddin Aminning “Sog‘liq va harakat” maqolalarini audio shaklda tinglashingiz mumkin.

To‘rtinchisi – “Qatag‘on” zali. 1937–1938-yillarda amalga oshirilgan “katta qirg‘in” chog‘ida yurtimizda o‘n minglab ziyolilar, jumladan, Germaniyada tahsin olgan yoshlarning deyarli barchasi qatag‘on qilingan. Bu yerda siz Majidxonning o‘z qizi Xayriniso nohaq qamoqqa olinganida chekkan nolasini, Abduvahhob Murodiyning 1929-yildagi ko‘rsatmasini ovozli shaklda tinglashingiz mumkin. Jumladan, Abduvahhob Murodiyning quyidagi so‘zlari har qanday yurakni larzaga keltirishi tayin: “...Biz Germaniyada faqat bir narsa haqida o‘ylar edik. Avvalo, xorijiy tillarni o‘rganib, Ovrupa ilm-fani yutuqlarini mamlakatimizga olib kiramiz, der edik. Shu maqsadda til kurslarini tugatish bilan tezdan eng iqtidorli yigitlarni imkon qadar turli-tuman sanoat va ilm-fan jabhalariga kengroq taqsimladik. Shu bilan birga o‘sha ilmlarning asoslarini mukammal egallash, turkiy tilda ularning terminologik lug‘atlarini tayyorlash, kerak bo‘lganida o‘zimizda yangi avlodni yetishtirish uchun o‘sha fan va hunarlarni o‘qitish usullarini o‘zlashtirdik. Kitoblarini to‘plab kengroq ma’lumotlarni o‘zlashtirishga, tarjimalar qilishga intildik. Maqsad – Vatanga katta ilm bilan qaytish edi. Biroq bizga nisbatan tazyiqni kun sayin kuchaytirib borishdi. Hatto, bir qism yoshlar mamlakatga qaytib borish fikridan qaytish darajasida qo‘rqib qoldilar. Men Turkiyada ko‘plab tanish orttirganman, menga u mamlakatning pasporti ham berilgan edi. Biroq Ovrupaga Vatanim ravnaqi uchun xizmat qilaman, deb yo‘l olgan edim. Meni Vatanga faqat unga foydam tegadi degan maqsad yetaklab keldi. Vatanimda oson bo‘lmasligini bilganim holda qaytdim. Tirik qolsam Vatanimda yashayman, aks holda unga xizmat qilib o‘laman...”

Tutqunlikda saqlanayotgan Sulton Matqul kameradoshlariga shunday vasiyat qiladi: “Kimdir bu yerdan tirik chiqsa, agar birortangiz tirik chiqa olsangiz, mening yaqinlarimga, xotinimga yetkazinglar, mening hech bir gunohim yo‘q! Men hammasini yozib berganman!”

Qatag‘on zulmiga duchor bo‘lib, cheksiz azob-uqubatlarni boshidan kechirgan mushfiq o‘zbek qizi Maryam Sultonmurodova 1957-yilda shunday guvohlik bergan edi: “To‘lagan Mo‘minov juda bilimdon, Sulton Matqul nihoyatda bosiq, mulohazali, Temur Kazbekov sho‘x, hazilkash, Sattor Jabbor esa yetuk olim va adabiyotga oshno inson edi. 1949–54-yillar Krasnoyar o‘lkasida surgunda bo‘lib qaytdim, hozirda Qaraman qishlog‘ida hamshira bo‘lib ishlayman... 1957-yilda meni oqlashgan. Mendan baxtli odam yo‘q edi. Axiyri orzum ushaldi! O, mening xursand bo‘lganlarim... Lekin afsus, ko‘p o‘tmay ixlosim qaytdi. Men hamon nazorat ostida ekanligimni, sharmisorlik tamg‘asining yuki hamon bosib yotganligini angladim. O‘zligingni pastga urishlarini his etishdan ortiq alam yo‘q olamda. O, bu qanchalar og‘ir! Agarda menga yuqoridan, masxaromuz qarayotgan mana shu kimsalar mendan yaxshiroq va mendan pokroq bo‘lishganda-ku, balki bu holga chidardim. Lekin aslo unday emas edi”.

Beshinchi zalga “Ko‘zgu” deb nom berilgan. Mazkur sokinlik maydonida allaqachon yulduzlar qa’riga singib ketgan millatimizning asl farzandlari akslantirilgan. Ularning dardli, ayni paytda mag‘rur ko‘zlariga qarab xayolingizdan Munavvar qorining “Sen mendadirsan” degan so‘zi o‘tadi. Yaqin tariximizga sayohatingiz yakunida to‘rt tarafni qurshab turgan oynaga boqar ekansiz, ularning siymosida o‘zingizni ko‘rasiz. Agar xohlasangiz o‘sha sharafli ajdodlaringiz bo‘lgan talabalardan biriga, xohlasangiz sizning qalbingizga Vatan, millat taraqqiyotiga mas’ullik hissini solgan ustozingizga, do‘stingizga, ota-onangizga, istasangiz siz ham vatandosh yoshlarga maktub yozishingiz mumkin. Buning uchun ham tashrif yakunida stol-stul, qog‘oz, konvert shay qilib qo‘yilgan. Har o‘n kunda qutilar ochilib, eng yaxshi maktub sohiblari taqdirlanadi. Ulardan namunalar “Jadid” gazetasi sahifalarida ham bosilishi mumkin.

Bugun mamlakatimizda jahonning qator oliy ta’lim dargohlari filiallari faoliyat olib bormoqda. Har yili o‘n minglab yoshlarimiz dunyoning turli mamlakatlaridagi oliy ta’lim muassasalariga kirib, turli yo‘nalishlarda tahsil olmoqdalar. Mazkur ko‘rgazmadan bosh maqsad – ertamiz egalari bo‘lgan yoshlarimizga bundan bir asr avvalgi jadid bobolarimizning jasoratlari haqida hikoya qilishdir. Zero, bobolarimiz omonati bo‘lgan bu muqaddas Vatan barchamizga birday aziz. Uning ravnaqi, taraqqiyoti yo‘lida o‘z hissasini qo‘shgan har bir inson shubhasiz, qahramondir!

Bahrom IRZAYEV,
Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi bosh ilmiy xodimi

UMUMMILLAT FUQAROSI


Aslida chin ijodkorning geografik chiziqlar bilan belgilangan aniq bir vatani bo‘lmaydi. Ona Vatani – dunyo, u umummillat fuqarosi. Buyuk adiblarning asarlari qayerda, qanday sharoitda yozilmasin, umumbasharning orzu-umidlarini, baxt-u fojialarini qamragan holda oqqa tushadi. Kichkinagina ijodxonada qog‘oz qoralayotgan qalamning ko‘lami sarhadsiz hududlarning azaliy orzularini, o‘y-qarashlarini, qadriyatlarini yalpi qamrab oladi.

Badiiy matnni har kim turlicha tushungani, yangi davr o‘zgacha nigohlarni shakllantirgani, diniy e’tiqodlarning turfaligi va nihoyat, har bir millat o‘ziga xos tabiatidan, urf-odatlaridan yiroqlashmagan holda tafakkur yuritgani bois san’at namunalari turlicha idrok etiladi. Biroq insoniyatni yaxlit bir tanaga aylantirguvchi shunday qadriyatlar borki, bu nuqtada shoirimiz Usmon Azim aytganidek, “faqat bitta yurak, faqat bitta bosh”ga aylangan jamiyat vujudga kelganiga guvoh bo‘lish mumkin. Xususan, ezgulik, gumanizm-insonparvarlik, millatga muhabbat, adolatsevarlik, hurriyat, ma’rifat tushunchalari shular sirasiga mansub.

Gruzin adabiyotining ardoqli yozuvchisi Nodar Vladimirovich Dumbadze ijodida ayni shu mavzularning, nafis tuyg‘ularning tasviri yetakchi o‘rinda turadi, shu bois adib millatlarning sevimli yozuvchisiga aylangan. Uning asarlarini o‘zbek tiliga o‘giruvchi tarjimonlar avlodi shakllanishi Nodar Dumbadzening xalqimiz ko‘nglidan chuqur joy egallashiga, yozuvchining kitoblari yurtimiz bo‘ylab qo‘lma-qo‘l o‘qilishiga sabab bo‘ldi. Bunday mohir tarjimonlarning eng old safida yozuvchining ko‘plab hikoyalari, qissa va romanlarini o‘zbek tiliga mahorat ila o‘girgan ustoz mutarjim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Nizom Komilning xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz. Darhaqiqat, Nizom Komil tarjima qilgan “Hellados”, “Ko‘rnamak” hikoyalari, “Kukaracha” qissasi, “Abadiyat qonuni”, “Oq bayroqlar” romanlari mutolaasi chog‘ida ushbu asarlarni xuddi ona tilimizda yozilgandek his etamiz, maroq bilan o‘qiymiz. Shuningdek, Muxtor Xudoyqulov adibning “Men, buvim, Iliko va Illarion”, Sanjar Tilla “Qo‘rqmang, onaginam”, Usmon Shamsimuhamedov “Quyoshni ko‘ryapman” romanlarini tilimizga katta iste’dod bilan o‘girgan. Qolaversa, yozuvchi asarlariga Mehmon Islomqulov, Hikoyat Mahmudova, Rustam Jabborov, Orif Tolib kabi tarjimonlar ham murojaat qilishgan.

Nodar Dumbadze 1928-yil 14-iyulda Gruziya poytaxti Tbilisida tug‘ilgan. Ijod olamiga dunyo nosirlari tanlagan yo‘l – hikoyalar bilan kirib kelgan yozuvchining ilk to‘plami 1958-yil “Qishloq bolalari” nomi bilan chop etilgan. Bu hikoyalarda bola tabiatiga xos sho‘xliklar, shumlig-u quvliklar, musaffo xayollar, oilasi vositasida yuragida ilk bor nish ura boshlagan Vatanga posbonlik tuyg‘usi, jamoaviy ahillik, jasurlik, adolatning ovoziga quloq tuta bilishdek yuksak fazilatlar e’zozlanib tasvirlanadi. “Hellados”, “Kuchukcha” hikoyalarida buning badiiy isbotiga guvoh bo‘lamiz. Umuman, Nodar Dumbadze har qanday yurtning kamolotini kelajakning millatsevar bo‘lib o‘sishida, o‘zi tug‘ilgan tuproqdan faxr hissini tuyub yuksalishida ko‘radi. Tbilisi shahrida adibning tashabbusi bilan “Mziuri” – “Quyoshjon” nomli bolalar bog‘i barpo etilgan. Bu xayrli ish millat yoshlarining ayni bolalikdan boshini bir qilishdek istakdan dalolat beradi.

1960-yilda yozuvchi o‘zining ilk yirik asarini – “Men, buvim, Iliko va Illarion” qissasi hamda 1962-yilda “Quyoshni ko‘ryapman” romanini e’lon qildi. Mazkur asarlarda urush yillarida gruzin qishloqlaridagi mashaqqatli hayot manzaralari aks etadi. 1967-yilda yozilgan “Quyosh kechasi” va 1972-yilda bosilgan “Oq bayroqlar” romanlari zamonaviy mavzuda bo‘lib, ularda insoniy munosabatlar, odamiylik, oqibat singari fazilatlar ulug‘lanadi. Nodar Dumbadzening katta maydonga kirib kelishida rus adabiyotining ham ta’siri beqiyos. Xususan, adib bir qator asarlarida Lev Tolstoy, Nikolay Gogol, Aleksandr Griboyedov nomlarini takror-takror tilga oladi. Avvalo, gruzin xalqining milliy o‘zligini qattiq turib himoya qiladi. Uning asarlarida gruzin adabiyoti asoschisi Shota



Rustaveli va uning “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asari, zamonaviy gruzin she’riyatining zabardast vakili Galaktion Tabidze nomlarini tez-tez uchratamiz. Kitobxon Dumbadzening asarlari olamiga sayohat qilar ekan, go‘yo Gruziyaning har bir ko‘chasini, milliy urf-odatlarini, gruzin xalqiga xos sarkash ruhiyatni kuzatib huzur topadi; bu asarlar sayyoh-kitobxonga o‘zlikni sevishni, insoniyatni qadrlashni o‘rgatadi. O‘quvchi mazkur kitoblarning har bir jumlasida daho qalamining kuchini his qiladi. Adib “Kukaracha” qissasida shunday yozadi: “Qalb insonning bamisoli ertaklardagi devday shishaga qamab qo‘yilgan orzu-o‘ylaridir... Hurriyatga chiqqan inson tafakkuri fanda, san’atda, adabiyotda mo‘jizalar yaratishga qodir. Har bir daho aslida o‘sha shishadan otilib chiqqan devdir”. Ushbu jumla, shubhasiz, biografik mazmunga ham ega. 1978-yilda Nodar Dumbadze o‘zining qo‘lma-qo‘l o‘qilgan “Abadiyat qonuni” romanini yozib tugatadi. Bu asarda inson qadr-qiymati, undan talab etiladigan fidoyilik, halollik, vijdonlilik singari fazilatlar haqida batafsil fikr yuritiladi. Uning aksariyat asarlarida hodisot, insoniyat taqdiri chuqur dramatizmga uyg‘un holda samimiy yumor bilan qorishib ketgan: “...ayiqlarga qarab turib, maymunlarga qaraganda ularning odamga ko‘proq o‘xshashini payqadim – ikki oyoqda turishadi, dumi yo‘q, uyimiz oldidagi barmoqsiz tilanchiday limonadni shishaning og‘zidan ichishadi”. “Oq bayroqlar” romanidan o‘rin olgan ushbu parchada barmoqsiz tilanchi personaji orqali tragik tasavvur hamda ikki oyoqda tik turib limonadni shishaning og‘zidan ichayotgan ayiqda maymunlarga qaraganda odamlik sifatlari ustunligi bilan bog‘liq yumoristik kayfiyat uyg‘unlashib ketgan. “Har bir ijodkorning yozish usuli nihoyatda shaxsiy odatlar bilan bog‘liq bo‘lib, yozuvchi o‘z uslubiga ega bo‘lishi, uni pishirib olishi kerak; o‘zganing kiyimi yurganda xalaqit beradi”, deydi mutafakkir adibimiz Oybek.

Nodar Dumbadze ijodining o‘ziga xosligi shundaki, uning asarlarida qadimiy an’analarga sodiqlik ulug‘lanadi. Qolaversa, badiiy asarni idrok etish degani – bu uni ayni davr bilan bog‘lab turgan nuqtalarini ko‘ra olish, topish demakdir.

“Avvalo, inson o‘z ishini sevmog‘i lozim, bu har bir kasbning qonunidir. Biroq san’at kishisi uchun bunday muhabbatning o‘zi kifoya qilmaydi. U tanlagan ishining o‘ziga ko‘ngli borligiga ishonmog‘i muhimdir. Ijodkor unga ato etilgan iste’dod beg‘araz muhabbat uchun huquq berishini chinakamiga anglab yetmog‘i joiz”, degan xulosa orqali nuktadon yozuvchimiz Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek ijodning ham, ijodkorning ham ma’naviy yuki, ma’rifiy missiyasi naqadar og‘ir ekanini yodga soladi. Ijodkorning qalbidan o‘tayotgan dardchil tuyumlar o‘z yo‘nalishida bashariyatning g‘am-tashvishlari, ozodlik uchun kurashlari yo‘li bilan bog‘lanmas ekan; buyuk qalam bezovtalanayotgan ruhiyatning talvasasini his qilmas ekan, yozilgan parchalar nursiz bir qoralama bo‘lib qolaveradi. Azaliy an’analar badiiy madaniyatning xotirasi hisoblanadi. Nodar Dumbadzening ijod dunyosi ayni shunday mavzular makon tutgan badiiy manzillardan sanaladi.

Yuqorida haqiqiy ijodkorning millati bo‘lmasligi, u butun insoniyatning farzandi ekani haqida to‘xtalgan edik. Yozuvchining “Kukaracha” qissasida buning badiiy isbotiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz: “...E, azizim, aslida biz, yer yuzidagi odamlar bir tilda gaplashamiz, lekin bir-birimizni tushunolmaymiz, chunki bir-birimizning gaplarimizga quloq solmaymiz”. Millatlar birdamligi, insoniyatning baxt-u kamoloti yo‘lida urushlarning oldini olish, go‘zal vatandoshlik jamiyatini barpo etish bugungi davrning bosh maqsadi emasmi, aslida? Shu nuqtayi nazardan, Nodar Dumbadzening ijod laboratoriyasidagi jami badiiy, ijtimoiy unsurlar yig‘ilib, Millat ensiklopediyasini, bashariyat qomusini hosil qiladi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Insoniyat dardi bilan ijodkor tuygan iztirob birlashgan nuqtada buyuk san’at namunalari maydonga keladi. “Oq bayroqlar” romanidagi ushbu qatrada dardning umumbashar ko‘lamiga guvoh bo‘lamiz: “...bizning go‘shamizda bahordan darak yo‘q. Qaldirg‘ochlar ham ko‘rinmaydi. Nima uchun ular hibsxona devorlariga in qurishmaskin-a? Ehtimol, ilohiy qush bo‘lgani uchun Allohning bandalari chekayotgan sitamlarni kuzatishga qaldirg‘ochlarning yuragi dosh berolmas? Hibsxonaning muqim sohiblari yo‘q, bu yerda odamlar to‘xtovsiz almashinib turadi, qaldirg‘ochlar esa osoyishta maskanga, inson mehriga talpinadi”. Muallif ko‘rgiliklarga, adolatsizliklar qurboni bo‘layotgan insoniyatga tomoshabin sifatida emas, hatto darddosh-qayg‘udosh sifatida ham emas, balki bevosita ko‘makdosh – ishtirokchi tarzida munosabatda bo‘lishga o‘quvchisini chorlaydi. Uning “Oq bayroqlar” romanidagi jo‘shqin qahramonlaridan biri Tigran “Yig‘ing bilan yer suvga to‘lmas, Yo‘qotganni qaytarib bo‘lmas”, deganida aynan mana shunday ijtimoiy-siyosiy faollikni nazarda tutadi.

Nemis faylasufi Fridrix Shelling san’atda har bir ijodkor o‘z mifologiyasini – individual ijod olamini yaratmog‘i lozimligiga urg‘u berib, agar ijod ahli ruhiyatni tadqiq etishni unutib qo‘ysa, san’at insoniyatdan yiroqlashib ketadi, degan to‘xtamga keladi. Uningcha, san’at nafosatning maishiy olam qo‘lida qurbon bo‘lishiga yo‘l qo‘ya olmaydi. San’at borliqni axloq prizmasi orqali badiiy tasvirlaydi. Hurlik bor joyda yovuzlikning oyog‘i qaltirab turadi. Yovuzlik mavjud ekan, ezgulik tugal muzaffariyat sari olg‘a intilaveradi. Zulm muqarrar g‘alabaning kafolatidir. Adabiyot tarixiga nazar solinsa, Vatan yo‘lidagi jasorat, erk uchun kurash, odamga oddiy bir yaratiq emas, balki Hazrati Inson sifatida munosabatda bo‘lish, zulmni ruhan inkor etish va bu yo‘lda qo‘rqmay jasoratga shay turish kabi mavzular aks ettirilgan asarlar bisyor ekaniga guvoh bo‘lish mumkin. Biroq ularning hammasi ham adabiyot maydonida yashab qola olmadi. Davr nog‘orasiga o‘ynagan san’at “parcha”lari ham borki, ularning borligi yo‘qlik mohiyati bilan tengdir. Oybekning “O‘yin uchun o‘q” hikoyasidagi Volodya, Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasidagi Yanguli, “Kukaracha” qissasidagi Georgiy Tushurashvili, Chingiz Aytmatovning “Oltovlon va yettinchi” hikoyasidagi Guram Juxadze obrazlari Ona Vatan yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan, millat qalbidan manguga joy olgan mana shunday jonfidolardir. Mazkur obrazlarning qismatida ona tuproqni sevish, uni himoya qilish qadriyat darajasiga chiqadi. Yangulining tili bilan aytganda, “Vatan – naqsh. Vatan – ichkariroqda, naq yurakning o‘zida!”

Gruzin xalqi ham xuddi o‘zbeklar kabi o‘z an’analariga sodiq, ona yurtini behad sevadilar. 1226-yilda xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi bu o‘lkada davlat barpo etgan. XIV asrda Amir Temur Kavkaz diyorini o‘z yurtiga qo‘shib oladi. Gruzin xalqi turkiy ajdodlarimiz bilan hamnafas, yon-u jon qo‘shni bo‘lib yashadi. Shundan bo‘lsa kerak, o‘zbek va gruzin xalqlarining urf-odatlarida, o‘y-qarashlarida, demakki, adabiyotida o‘ziga xos mushtarakliklar mavjud. Xususan, har ikki millat ijodiyotida qaldirg‘ochni ilohiy qush – mehribonlik, sadoqat, vafo, oqibat timsoli sifatida tasvirlash urf sanaladi. Nodar Dumbadzening “Oq bayroqlar” asaridagi qaldirg‘och obrazi ishtirokining mantiqiy davomini O‘lmas Umarbekovning “Oq qaldirg‘och”, Maqsud Qoriyevning “Qaldirg‘ochlar bahorda keladi” hamda Xurshid Do‘stmuhammadning “Beozor qushning qarg‘ishi” nomli qissa va hikoyalarida ham uchratish mumkin. Bu o‘rinda bir jihatni alohida ta’kidlash joiz: sanalgan asarlar orasida, faqat O‘lmas Umarbekovning qissasidan tashqari, barcha asarlarda qaldirg‘och majoziy obraz bo‘lmay, o‘tmishning katta voqealaridan sanalgan Ibrohim alayhissalomning yoqib yuborilishi bilan bog‘liq real hodisalarga bog‘lanadi va o‘sha mashhur xotira – mitti tumshuqchasi bilan suv tashigan tarixiy qaldirg‘ochning zamonasozlikka ko‘nmagan, asliyatidan yiroqlashmagan avlodlari tasvirlanadi. Bu jihat o‘zbek va gruzin xalqlarining azaliy qadriyatlari tutash ekanidan darak beradi. Adabiyotida, o‘y-qarashlarida, ruhiyatida, qo‘yingki, bor qadriyatlarida bo‘y ko‘rsatib turgan yaqin eshliklar, ma’naviy qondoshliklar, ijtimoiy rishtalar o‘zbek va gruzin xalqlari madaniyatining ildizlari tutash ekanidan darak beradi.

Kamol HAKIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti
o‘qituvchisi

ESSE

Izlanish ste’dodni CHARXLAYDI

Eski suratlarni, yoshlik yillarimda yozilgan maqola-yu hikoyalarni varaqlab turaman ba’zan. Bilmadim, bu yoshlikni qo‘msashmi yoki bosib o‘tilgan umrni tahlil qilishmi... Har qalay ko‘p voqealar esga tushadi, turli odamlar siymosi ko‘z o‘ngimda gavdalanadi. Bulardan zavq olaman, ba’zilaridan mahzun tortaman, ishonasizmi, vujudimga go‘yo kuch-quvvat enadi. Nima bo‘lganda ham qachonlardir izim qolgan so‘qmoqlar, yo‘llar – mening hayotim. Shu bois ular qadrli va aziz.

Ana shu odatim bo‘yicha yana arxiv titkiladim. Bir qancha hikoyalar, maqolalar chiqdi. Ularning aksariyati hech qayerda e’lon qilinmagan. Hikoyalarning ham, maqolalarning ham ko‘pini yirtib tashladim. Sanoqli hikoya va maqolalarni bir chekkaga olib qo‘ydim. Ular orasida “Kamolot” sarlavhali maqola e’tiborimni tortdi. Ko‘z yugurtirdim: aktyor Erkin Komilov haqida ekan. Shu maqola sabab Erkin Komilov haqida, uning ijodi to‘g‘risida o‘yga toldim...

Bir kuni uyda kitob o‘qib o‘tirgan edim. Telefon jiringladi. Oldim. Tanish ovoz. Erkin Komilov. Uning tovushidan nimadandir xursandligi sezilib turardi.

– Meni tabriklang, – dedi u.

– Xo‘sh?

– Hozirgina yangi spektaklning jamoat ko‘rigi bo‘ldi. Mutaxassislar yaxshi baholashdi. Glumov rolini alohida qayd etishdi.

– Chin yurakdan tabriklayman!

...Uning odati shunaqa: quvonchini ichiga sig‘dirolmaydi. Yaqin do‘stlari, ustozlari bilan baham ko‘radi. Ba’zilarday “ichimdan top” emas. Gaplashsangiz, bir qop yong‘oq deysiz. Lekin ichi puch emas, mag‘zi to‘q.

Erkinni A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san’ati institutida o‘qib yurgan kezlaridan beri bilaman. Andijonning Xo‘jaobod tumanidan kelgan bu yigit hazilkashligi, dilkashligi bilan kursdoshlari va institut domlalarining e’tiboriga tushgan edi. Shu bois u o‘qib yurgan yillari, ya’ni 1966-yilda sobiq Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatriga ishga qabul qilindi. O‘sha yillari u bilan birga teatrga yana bir necha yoshlar keldi. Tez orada ustozlari nazariga tushdi, hurmat-e’tiborga erishdi. U o‘z ijodiy uslubiga ega. Zotan, san’atkor mahoratini, uning xalq orasidagi obro‘-e’tiborini belgilaydigan asosiy mezon ham ana shu uslub – o‘ziga xoslikdir.

Har bir aktyorning o‘z ijodiy ampluasi bo‘ladi. Erkin Komilov dastlab komik rollar ijrochisi sifatida tanildi. “Oltin devor”dagi Qilichbek, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”dagi muxbir, “Qiyomat qarz”dagi Maks va boshqa rollar shular jumlasidan. Komik rollar ijrosi aktyordan juda katta mahorat talab qiladi. Chunki bunday xarakterdagi obrazlarning ijrochilari faqat qahramon xarakterini ochib berish bilan kifoyalanib qolmasdan, tomoshabinni kuldira olishi ham kerak, kuldirganda ham zo‘rma-zo‘raki emas, balki mahorat bilan, tabiiy kuldirishi lozim. Bu borada Erkin ustoz san’atkorlardan ko‘p narsa o‘rgandi.

Ammo Erkin Komilov bular bilan cheklanib qolmadi. Agar uning ijodiy biografiyasiga nazar tashlasak, turli xarakter va qiyofadagi dramatik, psixologik, mulohazali, chuqur mushohadali rollarni ham mahorat bilan ijro etganiga guvoh bo‘lamiz. Har bir rolga mas’uliyat, mehr bilan yondashadi. Erkin bilan qachon uchrashmang, suhbatlashmang, biron-bir yangi rolni tayyorlayotgan bo‘ladi, sizga ana shu obraz haqida, uning xatti-harakatlari, yurish-turishi, dunyoqarashi haqida gapiradi, bilmagan narsalarini tortinmay so‘raydi, o‘rganadi. Zero, izlanish, tinimsiz mehnat iste’dodni charxlaydi.

E’tibor bering-a! “Qaroqchilar”da Karl Moor, “Abu Rayhon Beruniy”da Ibn Sino, “Yo‘lchi yulduz”da Avaz, “Antigona”da Gemon, “Tirik murda”da sud tergovchisi, “Tarix tilga kirdi”da Muxlis afandi, “Samandar”da Qobilxon, “Ro‘yxatlarda yo‘q”da politruk, “Qalbi olov”da Sergey Politov, “Tomosha davom etadi”da Mannon Uyg‘ur, “Shoshma quyosh”da Bahrom... Telespektakllar-chi? Ularning o‘zi bir olam. “Yoz yomg‘iri”da Rahim Saidov, “Uchinchi avlod”da Boris Yarsev, “Billur qandillar”da Begimqul, “Har xonadonda bayram”da Sarmon va boshqa ko‘plab obrazlar.

Mana shu ro‘yxatning o‘ziyoq Erkinning aktyorlik mahorati, mulohaza qobiliyati, tafakkur doirasi kengligidan dalolat beradi. Chunki Erkinning qalb qo‘ri, iste’dodi ko‘chgan rollar orasida zamondoshlarimiz ham, turli millat vakillari ham bor. Uning qahramonlari har xil davrda, turlicha sharoitda yashaydi, mehnat qiladi. Aktyor ularning har biriga xos ijro usulini topa olgan. Bu haqda ustoz san’atkorlar, mutaxassislar yaxshi fikrlar aytgan. Nazir Safarovning “Tarix tilga kirdi” dramasi sahnaga qo‘yilib, jamoatchilik muhokamasidan o‘tganda atoqli dramaturg Uyg‘un Muxlis afandi rolini yaratgan Erkin Komilov mahoratini alohida ta’kidlagan edi. Bu jadid shoirning xarakteri Erkin ijrosida yorqin ochib berilgani qayd qilingandi.

Boris Vasilyev asari asosida qo‘yilgan “Ro‘yxatlarda yo‘q” spektaklidagi politruk roliga e’tibor beraylik. Bu spektakl Hamza nomidagi teatr sahnasidagi eng baquvvat asarlardan biri bo‘lib qoldi. Shu asar postanovkasi uchun uning rejissyori Bahodir Yo‘ldoshev O‘zbekiston yoshlar tashkiloti mukofoti bilan taqdirlangan edi. Bu spektakl teatr yoshlarining mahoratiga misoli bir ko‘zgu bo‘ldi. Ana shu spektakldagi politruk rolini Erkin Komilov g‘oyat mahorat bilan yaratib, spektaklning umumiy muvaffaqiyatiga munosib hissa qo‘shdi.

Erkin bir qator klassik asarlar qahramonlarini ham ijro etdi. “Antigona”da Gemon, “Ajal minorasi”da aka-uka Filip-Gatiya, “Qaroqchilar”da Karl Moor, “Uylanish”da Jevakin... Bir-biriga sira o‘xshamagan obrazlar. Karl Moor Germaniyani respublika sifatida ko‘rishni istagan, oddiy xalqqa zulm o‘tkazayotganlarga qarshi kurash olib boruvchi, ana shu ezgu niyat yo‘lida bir guruh “qaroqchilar”ni to‘plagan atamandir. F.Shiller qalamidan sayqal topgan bu klassik obrazni bir vaqtlar Olim Xo‘jayev mahorat bilan yaratgan, tomoshabinlar xotirasida o‘rnashib qolgandi. B.Yo‘ldoshev qaytadan sahnaga qo‘yganida uni uch aktyor – Y.Sa’diyev, E.Komilov, S.Umarov ijro etdi. Tabiiyki, uchala aktyorning talqini bir-biridan farq qiladi, o‘ziga xoslik bor. Erkinning Karli shiddatkor, ma’lum darajada qiziqqon, ammo yuragi toza yigit.

Jevakin-chi? Gogolning qaytarilmas qahramonlaridan bo‘lgan bu siymoni yaratish hazilakam ish emas. Loaqal uning gapirish usulini uddalay



olishning o‘ziyoq aktyor mahoratidan dalolat beradi.

Teatr yoshlari (B.Yo‘ldoshev rahbarligida) tomonidan sahnaga olib chiqilgan “Uylanish”ni kim ko‘rgan bo‘lsa, Erkin ijrosidagi Jevakin uning yodida saqlanib qolganiga shubha yo‘q. U Jevakinning yurish-turishi, biroz maqtanchoqligi, ayni chog‘da sal ovsarroqligini to‘la ifodalay olgan. Jevakin – Komilov tomoshabinni loqayd qoldirmaydi, u ishtirok etadigan sahnalar spektaklning eng jonli ko‘rinishlaridandir. Binobarin, klassik asarlar qahramonlarini sahnaga olib chiqish uchun aktyorga qobiliyat bilan birga jur’at ham kerak. Har qanday ishga dadillik va jur’at bilan kirishilmasa, ko‘ngildagidek chiqmasligi mumkin. Chunki inson o‘zidagi talantni ko‘rsata bilishi, namoyish qila olishi kerak. Ko‘pgina talantlar mana shu tomondan oqsab qoladilar-da, oqibatda tabiat ato qilgan iste’dod dunyo yuzini ko‘rmay yo‘qolib ketadi. Sahnaga qanday chiqib kelish, o‘zini tuta bilish, partnyori bilan muloqotda bo‘lish, harakatlarini aytayotgan gapiga moslashtira olish, o‘rniga qarab pauza ushlash, har bir so‘zni mazmunga qarab talaffuz qilish – bularning hammasi aktyor uchun suv bilan havodek zarur. Erkin bularni mukammal egallagan. Bu fikrni shunchaki aytayotganim yo‘q. Esimda, Hamza nomidagi teatr jamoasi 1977-yili Moskvada ijodiy safarda bo‘lib, jiddiy imtihondan o‘tdi. Ana shu gastrol spektakllarining to‘rttasida Erkin Komilov yetakchi rollarni ijro etgandi. Uning ijrosini tomoshabinlar olqishlaganini, spektakldan so‘ng dastxat yozdirib olish uchun atrofini muxlislar o‘rab olishganini ko‘rib ich-ichimdan sevinganman. O‘sha gastrol muhokamasiga bag‘ishlab SSSR Madaniyat ministrligida o‘tkazilgan yig‘ilishda so‘zga chiqqanlar Erkin Komilov mahoratini alohida ta’kidlab o‘tishgandi. Ayniqsa, san’atshunoslik doktori, talabchan, prinsipial tanqidchi Konstantin Rudniskiy Erkin Komilov ijodi haqida juda yaxshi fikrlar aytib, uning ishtirokida bo‘ladigan sahnalar spektakllarning eng yaxshi, hayajonli, qiziqarli sahnalaridir, deb ta’kidlagan edi. Rudniskiy teatrimizning Moskva gastroliga bag‘ishlab yozilgan va “Pravda” gazetasida chiqqan maqolasini “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektaklining Erkin Komilov ijro etgan muxbir roli tahlili bilan boshlagani ham buning dalilidir.

Erkinning ijodini kuzatgan kishi u roldan rolga o‘sib borganini payqaydi. Bu fikrga u sahnada va teleekranda yaratgan bir qator obrazlari to‘la asos beradi. Bular Uyg‘unning “Abu Ali ibn Sino” asaridagi Kamoliddin, Odil Yoqubov romani asosida ishlangan “Diyonat” videofilmidagi Haydar, O‘ktam Usmonning “Girdob” romani bo‘yicha suratga olingan shu nomli videofilmdagi bosh qahramon – Aziz Qosimov obrazlaridir. Haydar va Aziz rollari Erkinga shuhrat keltirdi. Bir qarashda, bu ikki obraz bir-biriga o‘xshab ketadi. Ikkovi ham aspirant, hatto ular ishlayotgan mavzularda ham qaysidir darajada yaqinlik bor – ikkovi ham qishloq xo‘jaligi masalasi. Lekin Haydar bilan Aziz bir tayoqning ikki uchi. Haydar otasining obro‘yi, puli orqali ilmiy darajaga ega bo‘lishni o‘ylaydi, bu yo‘ldan borish yaxshilikka olib kelmasligini ancha kech tushunadi. Aziz esa butun umrini ilmga, paxtaning yangi navini yaratishga bag‘ishlagan izlanuvchan yosh olim. U o‘zining bu ezgu ishi yo‘lida ne-ne mashaqqatlarga duch kelsa-da, biroq u hech qachon o‘z fikridan qaytmaydi. Bunday murakkab qahramonlar qiyofasini jonlantirish oson emas, albatta. Erkin Komilov ana shu mas’uliyatli ishni uddalay oldi. Tomoshabinlar uning ijrosida Haydarni ham, Azizni ham mukammal tarzda ko‘rishga muvaffaq bo‘ldi. Erkin talqinida tomoshabinga Aziz roli orqali haqiqat egiladi, ammo sinmaydi degan aqida singdirildi. Erkin Aziz obraziga shu darajada mehr berdiki, o‘sha yillari tug‘ilgan o‘g‘liga ham shu ismni qo‘ydi.

Erkin Komilov so‘zga harakatni, harakatga so‘zni moslashtirish mahoratiga ega. Qahramon dilidagi gaplarni, uning ruhiy dunyosini, yuz, qoshko‘z harakatlari – mimikalar orqali tomoshabinga yetkazib bera oladi. U obrazga yuzaki qaramaydi, butun vujudi bilan kirishadi. Ichki tug‘yon jo‘shib turadi. Mashhur aktyor Shukur Burhonov radio orqali berilgan bir suhbatda Erkin haqida yaxshi fikrlar aytib, uning ijrosida, ichki tuyg‘ularida, jo‘shqinligida o‘zimning yoshligimni ko‘rganday bo‘laman, deb ta’kidlagandi. Ulug‘ san’atkorning bu fikri shunchaki Erkinning ko‘nglini ko‘tarish uchun aytilgan gap emas. Shukur aka yaxshi gapni ham, tanqidni ham odamning yuziga tik aytadigan ko‘ngli ochiq, dangalchi odam edi. Buni hamma yaxshi biladi. Erkinning ijro mahorati nimasi bilandir uning yuragini jizillatganki, yuqoridagi fikrlarni aytgan. Shukur akaday san’atkorning nazariga tushish har qanday aktyor uchun baxt, sharaf.

Ana shu baxtni, sharafni saqlab qolish, saqlab qolishgina emas, uni rivojlantirish, yangi-yangi obrazlar bilan boyitish lozim. Ko‘pgina yosh san’atkorlar dastlabki shuhratdan, obro‘-e’tibordan gangib qoladi, ijodning, mahoratning cho‘qqisiga chiqib bo‘ldim, endi mening oldimga tushadigan ijodkor yo‘q, deb o‘ylaydi. Xuddi mana shu qarash izlanishning poyiga bolta uradi, mahorat qirralarini o‘tmaslashtiradi. Bu, afsuski, san’atkorni xalq nazaridan qoldiradi. Erkinda bunday hol deyarli bo‘lmadi. Biroq shuhrat balosi shunday yovki, har qanday kimsani o‘z domiga torta oladi, buni o‘sha odamning o‘zi ham sezmay qoladi. To‘g‘ri maslahat berganlarni “mening yutuqlarimni ko‘rolmayapti”, deb o‘ylaydi. Bir paytlar Erkinda ham bu kasallikning ba’zi elementlari ko‘rina boshladi. Ma’lum bir vaqt rolga yengilroq qaraydigan, ko‘ngliga yoqqan-yoqmagan rollarni ijro etadigan odat chiqardi. Ertalab radioda, peshinda dublyaj, keyin televizor, oqshom teatr... Bularni hech kim man etmaydi. Ammo ijodkor o‘z ustida ishlashi, aktyor har bir rolni puxta o‘zlashtirishi zarur. Yuqoridagi yugur-yugurlar esa bunga imkoniyat bermaydi. Erkinning ijodini, talantini qadrlovchilar unga do‘stona maslahat



berdilar, bu yaxshilikka olib kelmasligini, ishga yengil-yelpi qarashga o‘rganib qolishi mumkinligini aytishdi.

Bir vaqtlar suhbatimiz jarayonida unga shunday degan edim:

– Aytaylik, yigirma-o‘ttiz yildan keyin umringizning aynan mana shu yillarini eslaganingizda, qaysi rollaringizni havas bilan tilga olasiz?

U avvaliga biroz xafa bo‘ldi. Biroq masalani chuqurroq o‘ylab ko‘rdi chog‘i, fikringizga qo‘shilaman, dedi. Shundan keyin men uni ancha payt ko‘rmadim. Bir kuni qo‘ng‘iroq qilib, yangi spektakl premyerasiga taklif qildi. Bordim. Hamza teatrida qo‘yilgan Ostrovskiyning “Har to‘kisda bir ayb” asaridagi bosh qahramon Glumov obrazini ijro etdi. Spektakldan so‘ng uni grimxonasiga kirib qutladim. Glumov Erkin ijodidagi eng yorqin, mukammal obrazlardan biri bo‘lgan edi. Bu spektakldan keyin u “Zebunniso”dagi Roja Ram, “Yulduzli tunlar”dagi Tohir rollarini ijro etdi. “Zangori ekran”da Bachana Ramishvili (“Abadiyat qonuni”), Sultonali (“Alisher Navoiy”) obrazlarini yaratdi. Bularning har biri tomoshabin esida qoladigan, o‘ziga yarasha xarakterga, qalb va qiyofaga ega obrazlardir.

Erkin bilan tez-tez uchrashib turamiz. U bilan suhbatlashishni yoqtiraman. Sahna san’ati, aktyorlik mahorati, dramaturgiya, proza va poeziya haqida to‘lib-toshib so‘zlaydi. O‘qigan asarlarini yoxud tayyorlayotgan yangi rolini hayot bilan, odamlar bilan qiyoslab, solishtirib, tahlil qiladi. Uning suhbatidan sira zerikmayman. U ustoz san’atkorlarning hayotini, ijodini, uslubini o‘rganishga harakat qiladi. Ular butun umrini, qalb qo‘rini, kuch-quvvatini ijodga, san’atga bag‘ishlaganini hayajon bilan so‘zlaydi.

– Ustozlarimiz Olim Xo‘jayev, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, Sora Eshonto‘rayeva bizning yoshimizda qancha-qancha obrazlar yaratishgan, – degan edi ancha yillar oldin. – Xalq ularni e’zozlagan, ularga yuksak unvonlar berilgan. Biz esa hamon yoshmiz. Vaholanki, bizning davrimizdagi imkoniyat, sharoit u paytlarda bo‘lmagan. Ustozlarimiz butun vujudini, mahoratini ijodga qaratgan, yengil-yelpi ishlarga qo‘l urmagan. Biz, ochig‘i, dangasamiz, iloji boricha ko‘proq rol ijro etishga intilamiz. Uning sifati haqida ko‘pincha o‘ylab ko‘rmaymiz. Bitta bo‘lsa ham xalq qalbida qoladigan obraz yaratish lozim. Vaqti-soati kelib, g‘alvir suvdan ko‘tarilganda unda nimadir qolishi kerak.

Erkinning o‘zi bu gaplarga to‘la amal qilib kelmoqda...

Erkin Komilovning keyingi yillarda teatr va kinoda ijro etgan rollari, olgan unvonlari-yu ordenlari, xullas, erishgan barcha yutuqlari va yo‘qotganlarini xayolan ko‘z oldimga keltirdim va tahlil qildim. Ularning barini birma-bir yozadigan bo‘lsam “sarvdan qalam, daryodan siyoh qilmoq kerak” bo‘ladi. Binobarin, Erkin Komilovning hayoti va ijodi haqida uchta kitob – N.Musomovning “Biz yig‘lagan oqshomlar”, Z.Nazirjon qizining “Quyoshga eltuvchi yo‘l”, A.Ismoilovning “E’tibor. E’tiqod. E’tirof. Erkin Komilov” kitoblari, matbuotda o‘nlab maqolalar e’lon qilindi.

Erkin barakali, sermahsul ijodkor. U ijro etgan ayrim rollar to‘g‘risida alohida kitob yozish mumkin. Misol uchun, Mirzo Ulug‘bek roli. Xalqimizning buyuk farzandi, benazir olim, adolatli, ma’rifatparvar sulton, ilm ahlining rahnamosi temuriyzoda Mirzo Ulug‘bek obrazini sahnada talqin qilish har bir o‘zbek aktyorining orzusi, desak xato bo‘lmas. Bu buyuk bobokalonimiz siymosini sahnada va kinoda ulug‘ san’atkorimiz Shukur Burhonov qoyilmaqom qilib yaratib qo‘ygan. Shu bois o‘z qadrini va iste’dodi darajasini bilgan aktyor bu rolni ijro etishga istihola qiladi. Chunki ko‘z oldida buyuk Shukur Burhon turadi. Erkin Komilov ham ana shu mulohazalar tufayli Ulug‘bek rolini ijro etishga hadeganda jur’at qilavermadi. Qolaversa, u Shukur Burhonning suyukli shogirdlaridan hisoblanadi. Ustozi “panjasiga panja urishdan” o‘zini tiyib yurdi.

Ammo hayot davom etaveradi. Bir rolni bir necha aktyor ijro etish tajribasi hamma joyda bor. Bu rolni falon buyuk san’atkor qoyil qilib yaratib qo‘ygan, undan oshirib ijro etish mushkul, degan andisha bilan yuraversa, yillar o‘tgan sari o‘sha tarixiy rol-obraz esdan chiqib ketishi mumkin. Chunki zamonlar o‘zgaradi, avlodlar almashadi, lekin Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk shaxslar xalq xotirasi va tarixda mangu yashayveradi. Ularning faoliyati haqida yoshlarga vaqti-vaqti bilan sahna yoxud ekran orqali hikoya qilib turish lozim.

Ana shunday mulohazalar tufayli iste’dodli rejissyor Olimjon Salimov Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasiga murojaat qildi va bosh rolni Erkin Komilovga topshirdi. Erkin Allohdan, so‘ng buyuk olim va adolatparvar sulton Mirzo Ulug‘bek va ustozi, ulug‘ san’atkor Shukur Burhon ruhidan madad so‘rab, ishga kirishdi va nazarimda, bu mas’uliyatli ishni uddaladi. Erkin Komilovning Mirzo Ulug‘begi tomoshabinlarga ham, mutaxassislarga ham ma’qul bo‘ldi.

Dunyo teatr san’atida shunday tajriba bor: mumtoz asarlar qachon yozilganidan qat’iy nazar zamonga moslab sahnaga olib chiqilaveradi. Zotan, mumtoz asarlarda umuminsoniy muammolar ifoda qilingan bo‘ladiki, ularning boqiyligi, mumtozligi ham shunda va shu bois bunday asarlar har qanday davr va tuzumga qaramay, zamonaviylik kasb etaveradi. Rejissyor biron-bir mumtoz asarni sahnaga qo‘yayotganda unda ko‘tarilgan masalalar orasidan o‘zi yashab turgan zamondagi muammolarga uyg‘un jihatlarini birinchi planga olib chiqadi. Olimjon Salimov ham “Mirzo Ulug‘bek” fojiasiga ana shu nuqtayi nazardan yondashgan va talqin qilgan. Demak, spektakl va Mirzo Ulug‘bek roli alohida tadqiqotga arziydi. Erkin Komilov sahnada ijro etgan Abulfayzxon, Husayn Boyqaro, sulton Boyazid, Mo‘min chol, kino va teleekranda o‘ynagan Aziz Qosimov, Bachana Ramishvili, Bolta Mardon kabi rollar haqida ham shunday fikr bildirish mumkin...

Tanlagan kasbiga, oilasiga, ustozlar va shogirdlarga, do‘stlarga sadoqatli bo‘lish insonning eng asosiy fazilatlaridandir. Buni barcha biladi, ko‘p joyda gapiradi, ammo, afsuski, hamma ham rioya qilmaydi, rioya qila olmaydi. Shoxdan shoxga sakraydigan, do‘stlariga uning mansabi, obro‘yi, el-yurtdagi mavqeyi va boyligiga qarab muomala qiladiganlar, bugun ot ustida bo‘lgan do‘stining oyog‘i sal toysa uyalmay-netmay undan yuz o‘girib ketadiganlar qancha... Erkin shunga o‘xshaganlardan farqli ravishda kasbiga, oilasi, ustozlari va do‘stlariga tom ma’noda sadoqatli. Uning uchun do‘stining mansabi-yu boyligi, obro‘yi va mavqeyining ahamiyati yo‘q. Uning Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatri (hozirgi Milliy teatr)ga kelganiga oltmish yil (1966-yil, yigirma yoshida) bo‘layotir. Ana shu yillar ichida biron marta ish joyini o‘zgartirmadi, mehnat daftarchasiga bitta ishxona yozilgan. Kinoda, teleekranlarda necha o‘nlab turli darajadagi rollar ijro etdi, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi, filmlardagi ba’zi rollari uchun xalqaro mukofotlar bilan taqdirlandi (Nyu-York shahrida o‘tkazilgan XVII Xalqaro Osiyo kinosi festivalida Erkin Komilov “Suv yoqalab” filmidagi Bolta Mardon roli uchun oliy sovringa sazovor bo‘ldi). Kino va teleekrandagi ulkan yutuqlariga qaramay, u qadrdon teatrini tark etmadi, unga “bevafolik” qilmadi. Zero, ana shu muqaddas dargoh tufayli u elga Erkin Komilov bo‘lib tanildi.

Erkin bilan tanishganimizga oltmish yil bo‘lmoqda. Mana shu yillar davomida ikkovimiz ham boshimizdan ne-ne yaxshi-yomon kunlarni o‘tkazdik. U bilan turli safarlarda bo‘ldik, ijodiy uchrashuvlarda qatnashdik. Quvonchli-yu tashvishli kunlarda bir-birimizga yelkadosh bo‘ldik, yutug‘imizdan quvondik, g‘am-tashvish chog‘ida madadkor bo‘lib, taskin berdik. Mana shu uzoq yillik do‘stligimiz davomida o‘zaro hurmatimiz, hazil-huzullarimiz, eng muhimi, samimiyatimiz yo‘qolmadi. O‘rni kelganda kichkina bir sirni ochmoqchiman. Erkin bilan dastlab tanishgan paytlarimizdayoq xuddi bolalikdan birga katta bo‘lgandek sensirab gaplasha boshladik. Buning sababini ikkovimiz ham bilmaymiz. Balki, ko‘ngillarimiz yaqin bo‘lganidandir. Shu odatimiz hozirgacha davom etib kelayotir. Erkin 1988-yilda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘satgan artist, 1998-yilda O‘zbekiston xalq artisti, 2011-yilda “Mehnat shuhrati”, 2016-yilda “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi unvoni bilan taqdirlandi. Bir necha yildan buyon O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida talabalarga aktyorlik mahoratidan saboq berib kelayotir, unga professor ilmiy darajasi berilgan.

Ulug‘ yoshga qaramay Erkin Komilov bugun ham ijodda, ijtimoiy hayotda faol. Milliy teatrimizda namoyish etilayotgan aksariyat spektakllarda bosh va yetakchi rollarni ijro etayotir, turli darajadagi rasmiy va ijodiy tadbirlarda faol qatnashmoqda.

Bugun Erkin Komilovga qirq yil oldingi savolni yana qaytardim:

– Shu paytgacha teatrda, kino va televideniyeda ijro etgan rollaringdan qaysilarini havas bilan eslaysan?

Biroz o‘ylanib turdi-da, dedi:

– Allohga shukur, eslasam eslagudek rollarim bor, og‘ayni. Bularni o‘zing ham yaxshi bilasan... Ijro etgan rollarimning aksariyati men uchun qadrli. Ularning har biriga yurak qo‘rimni berishga, Yaratgan ato etgan iste’dodimni sarflashga harakat qildim. Shu bois ular menga farzandlarim kabi aziz. Ota uchun farzandining yomoni bo‘ladimi?

Bu javobda u haq!

Salkam oltmish yillik qadrdonim, jonday do‘stim Erkin! Senga mustahkam sog‘lik, uzoq umr tilayman!

Mamatqul HAZRATQULOV

JADID MATBUOTI

“CHAYON” VA “CHO‘L CHAYONI”NING NISHTARI

Ilk hajviy nashrlar xususida

Jadid matbuoti nashrlari orasida 1917-1918-yillarda “Chayan” shirkati tomonidan Toshkentda nashr etilgan “Chayon” hajviy jurnali alohida o‘rin tutadi. Turkistondagi ilk bu hajviy nashr 1917-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

“O‘n besh kunda bir marta chiqaturg‘on adabiy, siyosiy, hajviy, kulgi va rasmli jurnal”ning mas’ul rahbarlari tataristonlik taraqqiyparvar jurnalistlar Ibrohim Tohiriy va Xalaf To‘lakov edi. Ibrohim Tohiriy hajv va uning ijtimoiy ahamiyatini, dunyo hajviy adabiyoti tarixini yaxshi bilardi. “Adabiyotda, qadimlarga foyiq millatlarning adabiyot tarixlarinda hajv va kulgi eng birinchi o‘rin tuta, − deb yozadi u “Chayon”ning bir yilligiga bag‘ishlangan maqolasida. − O‘z xalqining yetishmagan yoqlarindan kulib, hajv etib ko‘rsatadigan matbuotning borushina, aning taraqqiysina e’tibor etib yoqti (yorug‘ – M.X.) va porloq kunlari bo‘luvina ishonganlar”.

U hajv turk xalqlari tarixida ham, adabiyotida ham muhim o‘rin tutganini ta’kidlaydi: “Bizning turk adabiyotida kerak eskisi va kerak yangisi bo‘lsun kulgi, hajvsiz qolmagan. Xo‘ja Nasriddin, Devona Mashrab asarlari o‘z bobinda har birisi biror kulku hajv jurnali edi”. Ushbu maqolada Ismoil G‘asprali tomonidan nashr etilgan “Xo-xo-xo”, Qozon va boshqa shaharlarda chiqqan “Ov qilar qarchig‘ay”, “Mulla Nasriddin”, “Cho‘kich”, “Yalt-yult”, “Qarmoq” kabi jurnallarga ham to‘xtalib, ularning “Chirib vayron bo‘luvg‘a yaqinlashgan” ijtimoiy hayot illatlarini fosh etishdagi xizmatlari e’tirof etiladi. Jumladan, o‘sha maqolada “Chayon” jurnalining ijtimoiy dasturamali va maslagi ham belgilab berilgan. Xususan, unda “Chayon”ning asl maqsadi “Turkiston krayinda fikriy inqilob yasov, madrasalar olamida zo‘r o‘zgarish maydonga keltiruv, o‘quvchilarni matbuot bilan do‘stlashtiruv”, “riyosiz, tarelkasiz (ya’ni, xushomadsiz – **M.X.**) haqiqatlarni ochiq ko‘rsatuv” maqsad qilingani aniq aytiladi. Jurnalning 1918-yil 2-sonida o‘quvchilarga murojaat qilinib: “To‘g‘rilik va haqiqat oshiqlari! Hech kimga tarelka tutmovchi, qo‘rqmay haqiqatni yozaturg‘on “Chayan”ga mushtariy bo‘lish”ga chaqiriladi.

Jurnalning mavjud sonlari bilan tanishganda, qo‘yilgan maqsadga to‘la amal qilinganiga guvoh bo‘lamiz. “Chayon” o‘sha davr ijtimoiy illatlari – johillik va mutaassiblik, adolatsizlik va taraqqiyotga g‘ov bo‘luvchi ijtimoiy kamchiliklarni ayamasdan, o‘z so‘zi bilan aytganda, “riyosiz” fosh qildi. Jurnalning 1918-yil 13-sonida bosilgan “Milliy teatr va oila islohoti” sarlavhali maqolada teatr va uning oila tarbiyasidagi ahamiyati haqida so‘z borsa, “Xalq dorilfununidagi komediyalar” sarlavhali kichik felyetonda (1918-yil 12-son) Turkiston xalq dorilfununidagi kamchiliklar, bu ilk oliy o‘quv yurtiga boshliq bo‘lgan amaldorlarning mahalliy millat vakillarini mensimasliklari fosh qilinadi.

Ma’lumki, “Chayon” Rossiyada katta ijtimoiy voqealar ro‘y berayotgan, jumladan, 1917-yil oktyabr to‘ntarishi bo‘lib o‘tgan bir davrda paydo bo‘lgan. Bu vaqtda Turkistonda yuz berayotgan jarayonlar ijtimoiy hayotni tor sinfiy oqimga burib, jamiyatni bir-biriga qarama-qarshi kuchlarga bo‘lib yuborgan va halokat yoqasiga olib kelgandi. “Yashasin, Turkiston muxtoriyati!” shiori ostida milliy ozodlik va mustaqillik g‘oyalariga xizmat qilgan “Chayon” jurnali 1917-yil voqealariga ham salbiy munosabat bildirdi. Jurnalda bosilgan “Bir komissar tilidan” deb nomlangan she’r bu fikrimizning isboti:


Komissar bo‘ldim, buyuk od oldim,
Millatni sotdim, necha maqtaldim.
Quyruq bo‘ldim men bolsheviklarga,
Turklikni-da tamom toptadim.

Jurnalning ijtimoiy hayot illatlarini bu tarzda keskin fosh etgani, ayniqsa yangi tuzum tartibini kuch ishlatish va zo‘ravonlik bilan amalga oshirayotgan bolsheviklarni tanqid qilgani sovet hukumatiga yoqmadi. Ular tatar sotsialist ishchilar qo‘mitasi nomidan jurnal muharririyatiga: “Bundan so‘ng sovetskiy vlastga qarshi yozmasqa va yozgan chog‘da yopilajagini bayon etib” xat yo‘lladi. Bunga javoban “chayon”chilar “Nikolayning jahannamiy istibdodi zamonida” ham hajviy jurnallar chiqib turganini bayon etib, endi “hurriyat keldi” degan zamonda zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilayotganligini qattiq tanqid qildi. Afsuski, bu xildagi norozilik va insofga chaqirish nidosi bolsheviklarga kor qilmadi. “Chayon” jurnali yopilib, muharriri qamoqqa olindi.

Jurnal muharriri Ibrohim Tohiriy keyinchalik bu voqealarni sharhlab, bolsheviklarning zo‘ravonliklari bilan bir qatorda Turkiston ijtimoiy hayotiga xos bo‘lgan noittifoqlik, ayrim ziyolilarning xudbinligi, manfaatparastligi ham “Chayon”ning yopilishiga sabab bo‘lganini aytgan edi. “Marhum “Chayon” jurnali haqida” maqolasida ham u o‘sha davrdagi ayrim ziyolilarning hajvga, tanqidga noxolis, xudbinlarcha munosabatda bo‘lganini keskin tanqid qilib: “Bu kun turkistonlilar uchun... maddohlik kerak, riyo kerak, nifoq sotuv kerak... Shuning uchun-da uning muharriri hibsga hukm etildi”, deb yozgan edi.

Bir tomondan bolsheviklar zo‘rovonligi-yu, ikkinchi tomondan mahalliy ziyolilarning loqaydligi bois o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan “chayon”chilar ruhan taslim bo‘lmadi. “Chayon” yopilishi bilan “Cho‘l chayoni”ni chiqara boshlashdi. Bu nashr ham o‘z maslagi va yo‘nalishi jihatidan “Chayon”ning davomchisi bo‘lmog‘i lozim edi.

“G‘ofil kishilarni g‘aflatdan uyatur uchun har turli tishlagich, chaquvchi hayvonlarni yaratuvchi Alloh azim hazratlarina cheksiz shukrlar bo‘lsinki, Turkiston musulmonlari uchun havo va suv darajasinda zarur bo‘lg‘on hajviy, kulgi, rasmli “Cho‘l chayoni” jurnali chiqa boshladi”, deb yoziladi jurnalning 1918-yil 1-sentyabrdagi ilk sonida e’lon qilingan bosh maqolada. Unda yangi nashrning asosiy vazifasi “haqiqatni maydonga chiqarish”, o‘quvchilarga “kimlar yovuz, kimlar ezgu, kimlar xiylakor, kimlar vijdonli” ekanligini ko‘rsatishdan iboratligi ham aytiladi. Shu sonda bosilgan “Cho‘l chayoni” ne uchun chiqa?” deb nomlangan maqolada jurnal “turk o‘g‘li, turk avlodligindan aning eng buyuk vazifasi – “turklik foydasi” bo‘lajagini, bir tomirdan ketgan turk butoqlarini ayirurga tirishuvchi, alar orasina qora machi (mushuk – **M.X**) yuboruvchi shaytonlarning naq vijdonlarini”, “olim ismini olib-da, ilm ismindin turklik inqirozina xizmat etuvchi, yosh ziyolilarga qarshi turish da’vosi-la ostroumovchilarga foyda keltiruvchi ulamolarning burni uchidan”, “to‘ra bo‘ldim”, deb o‘z chabotasi (chorig‘i – **M.X.**)ni to‘rga ilgan to‘ralarning mo‘yin tomiridan” chaqajagini bayon qiladi. Yana hajviy jurnalning “usul tarbiya-ta’limdan xabari yo‘q, bolalarning aziz umrlarini zoye etuvchi og‘och muallimlarning qulog‘idan chaqajagi”dan ogohlantirilar ekan, milliy tilning buzilish hollariga keskin munosabat



Muxtor XUDOYQULOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

bildiriladi: “Cho‘l chayoni” o‘z ona tilini tashlab, Vanka va Vaska tili birla o‘ramlarda gapirib yuruvchi musulmon qizlarning tilidan chaqajak”.

“Ozodlik kuni hurmatina” sarlavhali maqolani esa o‘sha davr hajviy publitsistikasining yorqin namunasi deyish mumkin. Muallifi ko‘rsatilmagan, ammo uslubidan Ibrohim Tohiriyga mansubligi taxmin qilingan bu hajviy-tanqidiy maqolada ozodlik, erkinlik haqida falsafiy mushohada yuritiladi. “Odamning hayoti jon bilan bo‘lg‘oni kabi jonning hayoti-da erk bilandir, − deb yozadi muallif. – Erki yo‘q jon – joni yo‘q tan kabidir. Ozodlig‘ ne’matidan mahrum millatlardan haqiqiy kishilar yetishmaydi”.

Muallif 1917-yil voqealari barchaga na huquq va na erk berganini urg‘ulab: “Afandilar, siz unutmangiz: huquq berilurg‘a yaramiy, olinurg‘a kerak”, deydi. Haqiqiy huquq va erk uchun kurashish lozimligini ta’kidlab, o‘z maqolasini: “Oh, Turon avlodi! Qayda g‘oyib etding sen askarlik ruhingni!” degan alamli murojaat bilan tugallaydi.

Xullas, “Chayon” va “Cho‘l chayoni” jurnallari birinchi tatar-o‘zbek hajviy nashrlari sifatida o‘sha davr ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynadi. To‘g‘ri, bu jurnallar faoliyatida bir qator kamchiliklar ham mavjud edi. Ular ko‘proq tatar matbuoti yo‘lidan bordi. O‘zbek matbuoti, demokratik adabiyot an’analariga yetarli e’tibor berilmadi. Natijada taniqli shoir va yozuvchilarni o‘ziga jalb etolmadi. Ammo bu jurnallar o‘zbek hajviy matbuotining ilk nashrlari bo‘lib qoldi va keyingi davr hajviy publitsistikasi taraqqiyoti uchun bir pog‘ona bo‘lib xizmat qildi.

XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLAR

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

1920-yil aprelda Andijonga Georgiy Safarov boshchiligida “Qizil Sharq” targ‘ibot-tashviqot poyezdi (aslida “qatag‘on poyezdi” deyish to‘g‘riroq) keladi. Tashviqotchilar Andijondagi oltmish to‘rt nafar rahbar xodimni hibsga olib, Toshkentga olib ketadi. Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti a’zosi, “Qizil Sharq” targ‘ibot-tashviqot poyezdi siyosiy komissari Georgiy Ivanovich Safarov, Turkiston fronti inqilobiy-harbiy kengashi a’zosi Yusuf Ixsanovich Ibrohimov va Turkiston fronti Maxsus bo‘limi vakili V.D.Sokolovskiylar tomonidan 1920-yil 10-mayda Andijon uyezd-shahar inqilobiy komiteti raisi Sultonbek To‘xtabekov, xalq xo‘jaligi kengashi raisi Fayzulla Shomurzinov, ta’minot bo‘limining sobiq agenti Usmon To‘xtabekov, 2-daha militsiyasi boshlig‘i Mirali Umarboyev, milliy targ‘ibot byurosi tashviqotchisi Latifjon Sodiqboyev va Andijon uyezd-shahar partiya komiteti raisi Ilya Smirnovga aksilinqilobiy xatti-harakatlarda qatnashgan va xizmat lavozimi bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etgan, degan soxta ayblar qo‘yiladi.

Oqibatda Andijon uyezdi rahbar xodimlardan bir qanchasi vazifalaridan asossiz bo‘shatilib, tergovga tortiladi. Ularni nomma-nom keltiramiz:

Shamsiboyev Qambarali – Andijon shahrida yashagan, kasbi tikuvchi. Andijon shahrida 1920-yil 11-mayda qamoqqa olingan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Tintuv chog‘ida 12 ming rubl puli olib qo‘yilgan.

Mo‘minboyev Samandar – 1920-yil 14-mayda “Milliy ittihod”ga a’zolikda ayblanib, Revolyutsion tribunal huzuridagi Andijon tergov komissiyasi tomonidan qamoqqa olingan. Turkiston fronti Maxsus bo‘limi 1920-yil 23-maydagi 509-sonli order bilan Yangi Iftora ko‘chasidagi 500-uyda tintuv o‘tkazgan.

Umarboyev Mirali – Andijon shahrida yashagan. Andijon shahar militsiyasi boshlig‘i, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. 1920-yil 23-mayda Maxsus bo‘lim komissari Kassel tomonidan tuhmatchilikda ayblanib, hibsga olingan. Tintuv chog‘ida 5849- va 1582-sonli mandat va guvohnomalar, 40-sonli aloqa xati va bir maktub olib qo‘yilgan.

To‘xtabekov Usmonbek – Andijon shahrida yashagan. Andijon ta’minot bo‘limi mudiri, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. 1920-yil 23-mayda tuhmatchilikda ayblanib qamalgan.

Shomurzinov Fayzulla – Andijon shahrida yashagan. Xalq xo‘jaligi kengashi raisi, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. Hunarmandchilik kooperativi mudiri, ishboshi, 1920-yil 23-mayda Andijon shahrining Yangi Iftora mahallasida tuhmat qilganlikda ayblanib hibsga olingan.

Sodiqboyev Latifjon – Andijon shahrida yashagan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi, 1920-yil 23-mayda tuhmat qilganlikda ayblanib, hibsga olingan. Tintuv chog‘ida RKP(b) a’zosi bileti, bir dona xat, uch ming besh yuz rubl puli olib qo‘yilgan.

To‘xtabekov Sultonbek – (Usmonbek To‘xtabekovning ukasi – R.Sh). Andijon shahrida yashagan. Andijon uyezd-shahar revolyutsion komiteti raisi va Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti hamda “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. 1920-yil 23-mayda tuhmat qilganlikda ayblanib, hibsga olingan.

Smirnov Ilya Grigoryevich – Andijon shahrida yashagan. Andijon uyezd-shahar partiya komiteti raisi. 1920-yil 10-mayda “Qizil Sharq” targ‘ibot-tashviqot poyezdining maxsus bo‘limi punktida hibsga olingan. Tintuv chog‘ida sakkiz ming rubl puli, RKP(b) a’zolik bileti, bir necha varaqdan iborat xat topilgan. Partiyada o‘chirilib, qamoq jazosi tayinlangan.

Mahmudov Boqi – 1903-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi, bosmachilar bilan aloqada bo‘lgan, aksilinqilobiy, millatchi guruhlar a’zosi sifatida targ‘ibot olib borganlikda, o‘quvchi-yoshlarni millatchilik ruhida tarbiyalaganlikda ayblanib 1937-yil 13-noyabrda 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Boqi Mahmudov 1939-yil 22-oktyabr qamoqxonada vafot etgan. 1959-yil 4-noyabrda oqlangan. Uning yolg‘iz farzandi Toyloq Mahmudov hozirda Andijon shahrida yashaydi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

HAJVIYOT

QARZXOH ILA QARZDOR

Qarzxoh qarzdor eshigini taq-taq qilar. Qarzdor panjare (deraza)-dan boshini chiqarib, ani ko‘rib pisinur.

Xizmatkori chiqib derki:

– Xo‘jayin uyda yo‘q! Tashqari ketdi.

Qarzxoh der:

– Ko‘b yaxshi. Kelsa deginki: yana tashqari chiqsa, boshini panjara oldig‘a unutib ketmasunki, ko‘rganlar uyda gumon qilurlar.

“Oyina”
1915-yil, 9-son.

ORZU YOKI XAYOL

Agar man boy bo‘lsa edim, zakot va boshqa xayrot o‘runlarig‘a hamda to‘y-u azalarg‘a isrof qilinaturgon oqchalarimni yig‘ib, alarning o‘rnida muallim yetushduraturgon bir rushdiy maktab solur edim, lekin afsuski pulim yo‘q.

Agar man “varasat ul-anbiyo” sifati oliyasiga mansub chin ulamodan bo‘lsa edim. Foydasiz havoshiy va zararlik mujodaloti mazhabiyya o‘rnida tafsir, hadis kabi zarur ilmlarni shogirdlarig‘a o‘rgatub, hozirgi jadid ila qadim nizoyi juziysig‘a hech qo‘shulmas va ahamiyat bermas edim, lekin taassuf o‘linurki johildurman.

Agar man xatib bo‘lsa edim, minbari xitobatg‘a chiqub o‘zbekcha xutba o‘qur edim. Toki xalq so‘zumg‘a tushunub mutaassir bo‘lsunlar, lekin na qilayki, odamlarg‘a xushomad va mudohona qilub, xatiblik mansabig‘a chiqmoqni vijdonim qabul qilmaydur.

Agar manim nufuz va iqtidorim bo‘lsa edi, barcha maktab va madrasalarni muvofiq zamoni isloh etib, ta’limi ibtidoiyni majburiy qilub, o‘g‘lini o‘qutmagon kishilarg‘a jazo berur edim va muning ila 25 yil ichida butun Turkistonni maorif va madaniyat nuri ila ziyolandurar edim. Lekin oh! Chi koraki...

Agar man muazzin bo‘lsa edim, sahar chog‘ida “mizana” ustig‘a chiqub azondan keyin “Ey musulmonlar! Xobi g‘aflat va jaholatdan uyg‘oningizki, maorif oftobi mag‘ribdan chiqa boshladi”, deb qichqurar edim...

Lekin bu vazifadan ham mahrumdurman.

GUMNOM
“Oyina” jurnali,
1914-yil, 34-son.

“XUSHIM KELMAYDUR”

Istaymanki, qalamni qo‘-lumg‘a olub ko‘rganda, eshitgan so‘zlarimdan “Oyina” majallasining o‘quvchilarig‘a bir necha g‘alatirog‘ini yozayin. Lekin xushim kelmaydur...

Istaymanki, yozayin: bu yaqin vaqtlarda katta kishilarimizdan biri katta to‘y qilib, necha shaharlardan davlatmandlarni to‘yig‘a da’vat aylab, alarg‘a necha ming so‘mlar sarf qilganda, faqir odamlarni va benavo talabalarni yodig‘a ham solmadi. Lekin xushim kelmaydur...

Istaymanki, yozayin: mashhur tojirlarimizdan bir necha nafari o‘z oralarida juma kunlarini ta’til qilub, do‘konlarini bog‘lamoqg‘a qaror berib, so‘ngra ahdlarini sindurdilar va hozirda “musichayi begunoh”dek juma kunlari savdo qiladurlar, xushim kelmaydur...

Istaymanki, yozayin: boylarimizdan biri talabamiz uchun 5 so‘m iona tilaganda bermay, har bayramda rus xonimlarini ziyofat qilub, 100 so‘m-100 so‘m xarj qiladur-da, o‘zini eng muqaddas va mutadin odam hisob qiladur, oh, xushim kelmaydur...

Istaymanki, yozayin: merosiy boybachalarimizdan birisi maktabg‘a ikki so‘m bermoqni isrof bilub, fahshxonalarg‘a necha ming so‘mni nobud qilub, oxirda sinub, mayda-mayda bo‘ldi, xushim kelmaydur...



Istaymanki, yozayin: ba’zilar yana dini shia va sunniy masalasini o‘rtag‘a solub, og‘-zig‘a kelgan xurofotni so‘ylab, avomlarni jonig‘a kelturub yurubdur, xushim kelmaydur...

Istaymanki, yozayin: haqiqiy mullalarimizdan biri bir necha xilof shar’iy odatlarni, vahshiyona rasmlarni barham beraman deganda, bir necha maftxo‘rlar va qodin quli nimchalar oni raddi ma’raka va tard majlis qildilar, ay qo‘y, xushim kelmaydur...

Xulosa har nima qilamanki, xushim kelsun, kelmaydur, yana kelmaydur! Agar “Oyina” idorasi ushbu jafangyotimni aynan majallag‘a darj qilsa, shoyadki xushim kelsun!

XUSHYOQMAS

Idora: *Ey, odamlarg‘a tosh otmoqg‘a xushingiz keladurku! Astaroq oting, “Oyina”g‘a tegmasun.*

“Oyina” jurnali,
1913-yil, 11-son.

Nodira EGAMQULOVA
nashrga tayyorladi.

TILBILIM

PARTU



Shunday so‘zlar borki, chin o‘zbekcha deging keladi, o‘zbekcha muqobiliyam borday tuyuladi, misol uchun – “fartuk” – o‘tgan asrda rus tili orqali olmonchadan tilimizga o‘zlashgan, “Rus tilining etimologik lug‘ati” muallifi M.Fasmer ham uning asli olmoncha – “oldga tutgich etak”, “peshband” ma’nosidagi “vortuch” so‘zi ekanligini ta’kidlaydi.

Sovet davrida bu so‘z, ayniqsa faol edi. Ko‘pgina ishxonalarda oldga tutgich ish kiyimlari fartuk atalardi, shuningdek, butun Ittifoqda o‘quvchi qizlarning maktab kiyimi sifatida ham fartuk tanlangan. Sovet davrini ko‘rgan katta avlod o‘sha davrdagi qo‘lida o‘roq-bolg‘a tutgan, fartuk kiygan ishchi-dehqon, proletar sha’niga tiklangan haykallarni yaxshi eslaydi. Paxtakor O‘zbekistonda esa “fartuk” alohida bir mavzu edi, ya’ni paxtazorda terimchilarning muhim quroli – etak ham “fartuk” atalardi, o‘sha davrda etak-fartuk taqib paxta termagan yoki uyida fartuk-etagi bo‘lmagan xonadon yo‘q edi. So‘zlashuv tilida bu matoh tilga moslashtirilib “partuq”, “partu” ham deyilgan.

Qizig‘i shundaki, Koshg‘ariy bobomiz “Devonu lug‘otit-turk”da shu so‘zga ham shakl, ham ma’no jihatidan juda yaqin “partu” so‘zini keltiradi va shunday izohlaydi:

“Partu – yaxtak, bir qavatli ustki to‘n, partuq”. Izohdagi “partuq” so‘zi “Devon”ni arab tilidan o‘zbekchaga tarjima qilgan adabiyotshunos olim Solih Mutallibov tomonidan “partu”ni tushuntirish uchun “fartuk” ma’nosida keltirilgan va unga olim matn tagida yana: “Shayx Sulaymon lug‘atida “partuq” degan so‘z bor. Bizda hozirgi orqasi bog‘ichlik, ish va ovqat mahalida tutiladigan “partuq” so‘zi kabi”, deb alohida izoh beradi. Tabiiyki, bu yerda olimni so‘zlashuv tilidagi “partuq” va “Devon”dagi “partu” o‘rtasidagi o‘xshashlik mulohazaga chorlagan. Solih Mutallibov: “partuq” shu – “Devon”dagi “partu”dan yasalganov”, demayapti, lekin shunga ishora bor.

Buni qarangki, “Devon”ni usmonli turkchasiga tarjima qilgan Basim Atalay ham “partu”ga alohida e’tibor qaratadi, uni: “partu – üste gıyılen hirka, pardesü”, ya’ni “ustdan kiyiladigan kiyim”, deb izohlab, matn tagida u ham: “Onado‘lida bugun ham “ust kiyim” ma’nosida “pirti” (“pırtı”) so‘zi ishlatiladi”, deb qo‘shimcha tushuntirish beradi (DLT. I.Ankara.1985.416). Shu o‘rinda Basim Atalay keltirgan “pardesü” so‘zi XIX asrda turkchaga o‘zlashgan “kiyim ustidan kiyiladigan kiyim” ma’nosidagi fransuzcha “pardessus” ekanligini aytib o‘tmoqchiman.

Onado‘lida “ust kiyim” ma’nosida qo‘llangan Basim Atalay keltirgan “pirti” (“pırtı”) chindan ham “Devon”dagi “partu”ning bugungi kungacha yetib kelgan shakli bo‘lishi ehtimolga juda yaqin. Ammo Solih Mutallibovning: “Shayx Sulaymon lug‘atida “partuq” so‘zi bor”, degan ma’lumotida biroz chalkashlik bor.

Shu o‘rinda mazkur lug‘at haqida ikki og‘iz so‘z: Shayx Sulaymon Buxoriy XIX asr boshida Buxoroning Qorako‘l tumanida tug‘ilgan, keyinchalik Buxoro amirining Usmonli davlatidagi elchisi etib tayinlanib umrining oxirigacha Istanbul shahrida yashagan va o‘sha yerda o‘zining qimmatli “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” asarini yaratgan. Lug‘at alifbo tartibida tuzilgan va uning “p” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlar jamlangan “fasli po” bo‘limida “partuq” emas, balki “partal” so‘zi bor va u: “pertel – pırtı, ufak defek eşya ve elbıse. Eştür veya büyügı, partal” – ya’ni: “partal – ustki kiyim (pirti), mayda-chuyda narsalar va libos, o‘rtacha va yo kattasi, partal”, deb izohlangan.

Guvohi bo‘lganimizdek, Shayx Sulaymon ham “partal” so‘zini izohlashda “pirti”ni keltiryapti. Mazkur ikkala so‘zning ham “fartuk” emas, balki “Devonu lug‘otit-turk”dagi “partu”ga aloqador bo‘lishi ehtimoli ko‘proq.

“Devon”dagi “partu” so‘zi etimologiyasi hali tadqiq etilmagan, bizningcha, u forsiy “etak” ma’nosidagi “bar” va turkiy “kiyim” ma’nosidagi “to‘n” so‘zlari qo‘shilib “barto‘n” shaklida yasalgan bo‘lishi ehtimolga yaqin, “Devon”da ham u “barto‘” shaklida kelgan, keyinchalik “b” tovushi talaffuzda “p”ga aylanib, so‘z oxiridagi “n” tovushi tushib qolgan bo‘lishi mumkin.

Alqissa, ushbu maqolada biz ham ma’no, ham shakl jihatidan deyarli bir xil, ammo biri o‘zlashgan, ikkinchisi esa unutilgan qadimiy o‘z so‘zimizni mushohada etdik. Bu jihozni bugun biz “fartuk” yoki tilimizga moslab “partuq” deyishimiz yoki qadimiy turkiy so‘z “partu”ni iste’molga qaytarib, uni shunday atashimiz mumkin. Menimcha, til manfaati nuqtayi nazaridan oxirgisini tanlash foydali, chunki o‘z bisotimizdagi so‘z, o‘zganing so‘zini olmadik, qolaversa, misol uchun: “fartuk kiyib oling” deyishdan “partu kiyib oling”, deyish qulayroq.

Abduvohid HAYIT

HAJV

DARVOZABON

Darvozabon desam, darrov kallangga kecha ispaniyalik Gomes tepgan o‘n bir metrlik jarima to‘pini o‘ng oyog‘i bilan qaytargan Ne’matov keldi, a? Adashding. Men o‘zimizni darvoza ustasi haqida hasratimni ag‘darmoqchiman. Hamma zamon va makonlarda bo‘lgani kabi mojaroni doyasi xotinakam bo‘ldi. Nimaymish, bor-yo‘g‘i yigirma yillik quyma darvozamiz modadan qopti, u kishim shu rangi o‘chgan ravotni deb mahallada yer chizib yurganmish.



“Kenjaoyimiz Chamandagulxonni so‘rab keluvchilarni ko‘zi, avvalo, darvozamizga tushadimi? Darvozaning haybatiga qarab bizni bo‘yimizni belgilaydimi? Xudo biladi, qancha o‘zini hurmat qilganlari qashqa eshigingizni ko‘riboq tisarilib ketgandir...” Bir hisobdan, gapi to‘g‘ri. Ro‘para qo‘shnim Rustam tullak bir yilda ikki marta darvoza almashtirib, mahallaga eshik-to‘yi qiberdi. Hurmati shunga yarasha tarvaqayladi. Ko‘chada yurishini ko‘rsang... Gapning erkagi shuki, o‘zingdan qolar gap yo‘q, xotinakamning ra’yiga qarshi borolmadim. Nega ishshayasan, moxov? Bu yog‘da Chamandagulxon chap qo‘lida oyna-yu, o‘ngida o‘smacho‘pi bilan darvozaxonada o‘tirgan bo‘lsa...

Uni qo‘y, buni qo‘y, tilponda oleks degan dallolni topib, arz-dodimni aytdim. Baraka topgur, qizginamni o‘smasi quriguncha o‘n ikkita darvozabonni tilpon raqamini qalashtirib tashladi. Yettidan biri Xizr deb yettinchi o‘rinda turgan raqamni tanlab tervordim. Birinchi chaqiruv javobsiz qoldi. Ikkinchisi band tushdi. Hay, menga qaytarib sim qoqyaptiyov degan yaxshi gumonda bo‘ldim. Xotinni xamiri ko‘pguday vaqt o‘tkazib yana tilpon urdim. Usta serxaridor shekilli, kutish rejimida xotinni kulchasi savatga tushguncha ilhaq o‘tirdim. Yettidan biri... deganlariday, yettinchi urinishda nihoyat narigi yoqdan avval quruq yo‘tal, keyin “Alo-o”, degan nido keldi. O‘xshatib salom berdim. Hol so‘radim. U yoqdan sovun surtilganday silliq tovushda “Alhamdulillah” shukronasi yangradi. Darvoza yasab berolasizmi, degan to‘pori savolimga “Inshaalloh” javobini oldim. To‘y qilayotgandik, o‘shanga sal tiqilinchroq, desam, “Mashaalloh” deya taskin berdi. Tag‘in kechikib, uyimiz bedarvoza, to‘yimiz otbozor bo‘p ketmaydimi, deb hazillashsam, norozi ohangda “Astag‘firullo” raddiyasini oldim-u, bir xayolim adashib Mullavali qoriga tushib qoldimmi degan fikr ham yo‘q bo‘lmadi. Ro‘paramda o‘qlovga suyanib turgan xotinakamni ko‘zidagi so‘roq belgisini ko‘rib, ovozimni chiqazib “Ko‘z tegmasin, Mulla Xunob, omading chopib qoldiyov, ustaning lafzi haloli, chin musulmoni ro‘para keldi, qandingni ur”, devoribman. To‘xta, gapni oxirigacha eshit, borasan o‘sha mo‘risi qiyshiq uyingga. Xullas, Yangiobod otlig‘ ochiq osmon ostidagi temir-tersak bozoriga borib, usta qorini topdim. Senga yolg‘on, menga chin, yuzidan nur, ko‘zidan yog‘du sochilib turibdi. Usta deganing shundog‘ bo‘lsa-da, sudralishib uyingga borib, ejikilab o‘tirmasa. Buyam meni og‘zaki ta’rifimni diqqat bilan eshitib, tilponiga o‘lchamlarini tusmollab yozvoldi. Rangi, uydagilarning talabiga ko‘ra, o‘smarang bo‘ladigan bo‘ldi. O‘n kun ichida o‘rnatib beraman, degan va’dasini eshitib, bir quchoqlab o‘pay ham dedim-u, atrofda ivirsib yurgan lo‘li bachalardan hayo qildim. Albatta, savdoni pishitdik, yarmini bo‘nak qilib berdim.

Uyga qaytdim-u armani qo‘shnim Xatsekni chaqirib, darvozamni qo‘portirdim. Baraka topgur, Xatsek juda ishbilgi emasmi, yondosh ko‘chadagi Olim sartaroshga darvozamni bir changal pulga o‘tkazib berdi. Xotinim ko‘zidagi “bu qanaqasi” degan so‘roq belgisiga: “Ничевў, соседка, всемирное потепление, будет сквозняк и приятно особенно в летних чиллах...”, degan salobatli javob oldi.

Ana endi haqiqiy “Aragvay” boshlandi. O‘n kundan keyin endi tilpon uraman deb tursam, usta qorining o‘zi jiringlatib turibdi-yu. Qoyilman-e, devordim sevinganimdan. “Darvozaning gulini kelishmabmiz-u aka, gulsiz juda abgor bo‘ladi-yu. Hozir rasm tashlayman, tanlavorarsiz”. Uyichi bilan tanlab, qaytarib yubordik. Yana ikki haftacha vaqt o‘tgach, betoqat sim qoqdim. Ko‘tarmadi. Xat yozdim, javobsiz qoldi. Ovozli xabar jo‘natdim, bir sado bo‘lmadi. To‘qqiz kuncha o‘tib, ustakaning shaxsan o‘zi meni yo‘qlab, tilpon qildi. “Okam, nabodo travmatalo‘giyada tanish yo‘qmi? Kecha adamgila tomdan toyib, oyoqlari abjag‘ bo‘p ketti. Anaqqisa, yordam bervoring”. Anaqqisa, undan-bundan surishtirib, o‘rtaga u-bu kimni solib, siniqchi do‘xtirni topdim-u, ustakamni izini yo‘qotdim. Kunlar temirarradan to‘kilgan qipiqday bebaraka o‘tib ketyapti. Bu yoqda ko‘chakezar sovchilar darvozasiz hovlimizni ko‘rib, yoqasiga tuflab qochyapti. Xotinakam kaminani ovsardan olib pandavaqiga solib, salkam zuvala yasab, cho‘g‘langan tandirga urvorgiday vajohatda. Qizginamiz o‘sma-surmaniyam chetga surib, tarki dunyo qilganday mehmonxonadan chiqmay qo‘ydi. Xullas, milisaga berib qidirtirsam, haligi usta degan muloyim mushuk g‘irt firibgar bo‘p chiqdi. Mendan tashqari darvoza shinavandalari yetmish yetti nafar ekanmiz. Ana tomosha. Baribir Xatsekda odamgarchilik ancha rivojlangan. Eski darvozamni Olim sartaroshdan yuz dollir ustamasiga joyiga qaytarib qo‘nqaytirib berdi. O‘zim jilvirqog‘ozda terisini shilib, to‘q o‘smarangga bo‘yab tashladim. Kam bo‘lganim yo‘q. Qo‘shnim Rustam tullak jez tishini ko‘rsatib tirjayadi. Uyam eski darvozasini bir qo‘porib, qayta o‘rnatgan mardumlardan bo‘lib chiqdi. Xullas, yangi darvoza sartaroshning uyidan yo‘lli keldimi, bir hafta ichida Chamandagulxonni baxti ochilib, Otchopardagi eng oldi somsapaz Zikrilla piyozni kenja o‘g‘liga boshi bog‘landi. Shoshma, zahartang bo‘lgan o‘yinchiday buncha betoqatsan? Qissadan hissa shuki, mana taklifnoma, shanba kuni “At-turshak” to‘yxonasida kutaman. Kelmagan – usta qori bo‘lsin, omin!

Mulla XUNOB

Husan SODIQOV chizgan rasm.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do‘stbekov

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5 983
Lotin yozuvidagi adadi – 11 931
Media kuzatuvchilar – 18 431
Buyurtma: G – 740.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 18:35
Sotuvda narxi erkin.

YANGI LUG‘AT

ATAMALAR SHARHI



SMARTFON – telefonning murakkab vazifalarni bajarishga qodir EHM qismlari bilan jihozlangan turi. Uning yordamida nafaqat qo‘ng‘iroq qilish, balki boshqa ko‘plab amallarni bajarish imkoni mavjud.



PRANK – ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan hazil yoki o‘yin. Aksar hollarda ijtimoiy mavzularda ham pranklar tasvirga olinadi. Bunday ijtimoiy masalalarga qaratilgan pranklarda odatda biror holatga odamlarning munosabati o‘rganiladi.



KOLLABORATSIYA – ma’lum bir ko‘zlangan maqsadga yetishmoq yo‘lida harakat qilayotgan qatnashchilarning g‘oya atrofida birlashishi va imkoniyatlar hamohangligidir.

STORIS – bir necha lahza, onlarni foto yoki videolavha ko‘rinishida omma e’tiboriga namoyish etish imkonini beruvchi ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lgan bir bo‘lim. Qisqa videolavha va fotolar jamlanmasidan iborat storis ma’lum vaqt o‘tgach avtomat ravishda tarmoqdan yo‘qoladi.



Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali **@jadidgamurojaat_bot** manziliga yuborishlarini so‘raymiz.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

SAN’ATDA ETIKA MASALASI

Facebookda bir videodan parcha ko‘rib qoldim. Sergelida uch farzandi bilan o‘zini 9-qavatdan tashlagan ayol voqeasi videofilm qilinibdi. Parchada aynan o‘sha bolalarni bitta-bitta derazadan uloqtirish sahnasi aks etgan.

Dahshat! San’atda ham etika degan narsa bor. Lekin unga tupurib qo‘yilibdi. Chinakamiga o‘sha holatni tafsilotlari bilan aynan sahnalashtirishdan maqsad nima? Maqsad agar ezgu bo‘lgan deb ishontirmoqchi bo‘lishsa, ishonmadim, rosti.

Hammaning fikri har xil. Million odam to‘g‘ri xulosa chiqargani bilan bittasi noto‘g‘ri xulosa chiqarib shu ishni takrorlasa, zo‘r rejissura, oliy darajadagi ijro-yu boshqa bahonalar bir pul bo‘ladi bitta bevaqt ketgan inson hayoti oldida.

Misol keltiraman.

Italiyada yosh, chiroyli qiz cherkovning abortni qoralashiga va jamiyatga alohida shaxslar tomonidan sitam o‘tkazilishiga norozilik sifatida o‘zini derazadan tashlaydi. U so‘nggi yo‘lga dabdaba bilan kuzatiladi. Bu TVda namoyish etiladi. Shundan keyin italiyalik qizchalar o‘rtasida binolarning derazasidan va tomdan tashlab o‘zini o‘ldirish ko‘payadi. Bu “qora seriya”ni to‘xtatish uchun davlat barcha choralarni sinab ko‘radi. Ammo samara bermaydi.

Kunlardan birida o‘zini o‘ldirishga harakat qilgan qizlardan biri o‘lmay qoladi. Undan nega bunday qilganini so‘rashganda, qizcha: “Axir, ko‘mish marosimlari qanday chiroyli”, deydi!

Ya’ni o‘z joniga qasd qilishni ortiqcha tafsilotlar bilan namoyish qilish beixtiyor uning romantizatsiyasiga olib kelishi, kimlardadir havas uyg‘onib qolishi mumkin. Muammoning ildizlarini muhokama qilish kerak, albatta. Biroq dahshat tafsilotlarini ekranlashtirish xavfli.

Qolaversa, o‘sha oila a’zolari, marhumlarning yaqinlari haqida ham o‘ylash kerak – insoniylik nuqtayi nazaridan. Dahshatni aynan sahnalashtirib insonlarni yana o‘sha daqiqalarni yashab o‘tishga majbur qilish, majruh qalbiga ozor yetkazish bu – vahshiylik-ku! San’at o‘zini o‘zi tozalashi kerak. Etika kerak, maktab kerak.

Shahnoza SOATOVA
Facebook